



✦ SO'Z CHAMANI ✦

---

# MAXTUMQULI

---



821. 542. P64

M 32 2020/131-34  
Mastrucchi


2020/131-34

821.512.164

M 32

SO'Z CHAMANI

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
«IJOD» JAMOAT FONDI

*To topibon xush takallum tuzay,  
So'z chamani ichra navo ko'rguzay.*  
**Alisher Navoiy**

---

# MAXTUMQULI

---

16+

Toshkent  
«Akademnashr»  
2020

823,512,164-1 - Spetsman, M. Kenjabek.  
2020

UO'K: 821.512.164-1

KBK: 84(5Tur)

M 32

M 32

Maxtumquli [Matn] : she'rlar / nashrga tayyorlovchi

M. Kenjabek, - Toshkent : Akademnashr, 2020. - 128 b.

ISBN 978-9943-6359-4-4

UO'K: 821.512.133-1


KBK: 84(5O)8

Turkmanchadan tabdil va tarjima etib,  
nashrga tayyorlovchi, sharh va izohlar muallifi:  
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar  
murabbiysi, Xalqaro Bobur mukofoti sohibi

**MIRZO KENJABEK**

“So'z chamani” turkum kitoblarining navbatdagi risolasi turkman  
xalqining otashun shoiri, barcha turkiy xalqlar uchun ardoqli va sevimli  
bo'lgan hazrat Maxtumquli she'rlaridan tuzildi. Ushbu go'zal ma'rifiy  
guldiasta muhtaram she'r muhblariga manzur bo'lishi shubhasizdir.

Ўзбекистон



ISBN 978-9943-6359-4-4

© «Ijod» jamoat fondi, 2020

© «Akademnashr», 2020

40 48343  
2.

## KARAM AYLA, YO RAB, QUDRATLI SUBHON

Karam ayla, yo Rab, qudratli Subhon,  
G'arib, g'amgin kechgan holimga mening.  
Aqlim hayrondadir, etibman pushmon,  
Bilmaslikda kechgan solimga<sup>1</sup> mening.

Mahshar kun bo'lmasang Sen menga dalda,  
Yo Rab, qanday bo'lar ishim u holda!  
Iymonim matohin eltuvchi yo'lda,  
Rahzanlar<sup>2</sup> qo'ymagil yo'limga mening.

Din qilichin ursam, tanda zo'rim<sup>3</sup> yo'q,  
Muhtojsa non bersam, qo'lda zarim yo'q,  
Faqirdirman, Sendan o'zga yorim yo'q,  
Bir tasalli bergil ko'nglimga mening.

Istasa teng-to'shlar boshga oltin toj,  
Faqirlik mulkindan ber menga iloj,  
Ey Yaratgan, etma nomardga muhtoj,  
Tilagim duch etma zolimga mening.

---

<sup>1</sup> Sol – yil, o'tgan umr.

<sup>2</sup> Rahzan – yo'ldan uruvchi, qarog'chi.

<sup>3</sup> Zo'rim – bu o'rinda: kuchim, quvvatim.

Ojizdirman, Sendin o'zga kimim bor,  
O'zing bergan jonga jabr etma, Jabbor,  
Maxtumquli aytar: karamli G'affor,  
Boqma qilmishimga, fe'linga mening!

## IYMONIM YO'LDOSH BO'LSA

Dehistonning bayirinda<sup>4</sup>  
Bodi saboni ko'rsam.  
Bahouddin, Mir Kulol,  
Zangi Boboni ko'rsam.

Na'layni<sup>5</sup> Arshga tojdir,  
Nomi olamga foshdir,  
Ikki jahon muhtojdin,  
Arabzabonni ko'rsam<sup>6</sup>.

Kelgan ketar shasht<sup>7</sup> etib,  
Sayr etmas guzasht<sup>8</sup> etib,  
Ko'ngil aytar: gasht etib,  
Olam-jahonni ko'rsam.

---

<sup>4</sup> Bayir – ot, otning yelgir bir turi.

<sup>5</sup> Na'layn – bir juft na'l, bir juft kovush, bir juft taqa.

<sup>6</sup> Ushbu baytda Janob Rasululloh (s.a.v)ning muborak vasflari bayon qilinmoqda.

<sup>7</sup> Shasht etmoq – shoshmoq, shitob etmoq.

<sup>8</sup> Guzasht – o'tmoq, guzashtan fe'lidan, guzar qilmoq.

Xizir kabi cho'llarda,  
Ilyos kabi ko'llarda,  
Kovus kabi tog'larda  
Yaxshi-yomonni ko'rsam.

Oldinda Hindistonni,  
Orqada Turkistonni,  
Avliyolar ummoni –  
Ul Rumistonni ko'rsam.

Jon foniy, jahon shaydo,  
Mundan hech yo'qdir foyda,  
Yetti tog', yetti daryo –  
Dali dunyoni ko'rsam.

Maxtumquli xush bo'lsa,  
Oqsa, diydam yosh bo'lsa,  
Iymonim yo'ldosh bo'lsa,  
Borsam, Ka'bani ko'rsam!..

## **YO RAB, XABAR BILARMANMI, YOR, SANDAN?**

Bulbullarni asir etgan gul xandon,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?  
Yetti iqlim menga ko'rinar zindon,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?

Isfandiyor, Ruyintob, Rustam, Zolinda,  
Shom, Najafda, Makka, Damashq elinda,  
Arzi Kursda, Karbaloning cho'linda,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?

Sharob ichib, sarxush bo'lib, sakrasam,  
G'anim jonin qiyma-qiyma to'g'rasam,  
Go'ro'g'lidek tog'dan-tog'ga uchrasam,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?

Bir gul anqir go'zal yorning bog'inda,  
Bulbul hujum aylar so'l-u sog'inda,  
Baytullohning Safo, Marva tog'inda,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?

Shayx San'onday uzun g'amga ulansam,  
Shibliy kabi tuz-tuproqqa belansam,  
Ka'ba borib, yetti karra aylansam,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?

Yusuf kabi zindon ichra yig'lasam,  
Jirjis kabi jon yo'linda chog'lasam,  
Yunus kabi Haqqa qulluq bog'lasam,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan?



Duo qilib, qo'lim ko'kka ko'tarsam,  
Gul Farxordek<sup>9</sup> qizil rangim so'ldirsam,  
Qo'biz olib, ulug' na'ra choldirsam,  
Yo Rab, xabar bilarmanmi, Yor, Sandan.

### **BILGAN BORMI, YORONLAR?**

Ishq yo'lin havas aylab,  
Kelgan bormi, yoronlar?  
Dardimni bayon etsam,  
Bilgan bormi, yoronlar?

Bo'lmisham mast-u shaydo,  
Hazor<sup>10</sup> pesh, sad<sup>11</sup> savdo,  
Olamda menday rasvo  
Bo'lgan bormi, yoronlar?

Tashim dard, ichim biryon,  
Etarman nola, giryon,  
Mendayin mast-u hayron  
Qolgan bormi, yoronlar?

---

<sup>9</sup> Farxor – Turkiston diyonidagi go'zal yuzlilarga mansub ko'rkam shaharning nomi ("G'iyos ul-lug'ot").

<sup>10</sup> Hazor – ming soni.

<sup>11</sup> Sad – yuz soni.

Yolg'on dunyoda yayrab,  
Kezarmen kulib, o'ynab,  
Ishq matbaxinda<sup>12</sup> qaynab,  
O'lgan bormi, yoronlar?

Ishq duch kelsa bir mardga,  
Xok bo'lar, do'nar gardga,  
Mendayin o'zin dardga  
Solgan bormi, yoronlar?

Tob etmayin zulmga,  
Bordi holim o'limga,  
Yig'lamayin holimga,  
Kulgan bormi, yoronlar?

Maxtumquli jon cheksa,  
Rahm etmaslar, yosh to'ksa,  
Ishqing yo'linda, yo'qsa,  
Tolon bormi, yoronlar?

---

<sup>12</sup> Matbax – oshxona. Bu yerda: qozon.

## YO RAB, QULAMASMI BUYUK TOG‘LAR, HEY!..

Qismat bo‘lmas, ketsam uzoq yo‘llarga,  
Nasib qo‘ymas, ketar yo‘lim, bog‘lar, hey!  
Hayron Majnun bo‘lib chiqay cho‘llarga,  
Borib maskan tutay sizni, tog‘lar, hey!

O‘yin bilan o‘g‘lonlikning damindan,  
Yetib keldim komillikning jamindan,  
Ko‘nglim larzon bo‘ldi dunyo g‘amindan,  
Tutdi siynam parcha-parcha dog‘lar, hey!

Qayta-qayta o‘g‘lonlikning royindan<sup>13</sup>,  
Yetib keldim komillikning poyindan,  
Botdi boshim, chiqa bilmam loyindan,  
Yodga tushar burun kezgan chog‘lar, hey!

Bolalikda chor tarafga chopishgan,  
Bilmaslikda hamma ishga qotishgan,  
O‘jiz qolib, qarilikka yetishgan,  
Dardlar chekib, o‘z-o‘zidan yig‘lar, hey!

---

<sup>13</sup>Roy (roh) – 1) yo‘l, ko‘cha; 2) fikr, andisha.

Ma'no olgan Maxtumquli so'zindan,  
Fikra tushar, yoshlar oqar ko'zindan,  
Hamma narsa tag'yir<sup>14</sup> topar O'zingdan,  
Yo Rab, yiqilmasmi buyuk tog'lar, hey!

## BARCHA ISH HAQNING KORIDIR

Yigit ko'ngliga xush yoqqan  
Otning ko'rki – raftoridir.  
Elga, ulusga xush kelgan  
Ot, qilich – er guftoridir.

Ortingga boq, olding ko'zla,  
Xush so'zing ayt, qahring gizla,  
So'zlay bilsang, yaxshi so'zla,  
Xalq yomonning bezoridir.

Dunyo daroz, umr qolmas,  
Ajal kelsa, chora bo'lmas,  
Ne ish bo'lar – odam bilmas,  
Barcha ish Haqning koridir.

O'tar davron, bermas solim,  
Bu kun yomon, dema holim,  
Munda navbat sursa zolim,  
Erta Haq g'arib yoridir.

---

<sup>14</sup>Tag'yir – o'zgarish.

O'z erkim bilan so'z demam,  
Kelajak rizqqa g'am yemam,  
Jahonda bor ishdan yomon –  
Bir mo'minning ozoridir.

Anglar kishi duch kelmasa,  
Sirlasharga yor bo'lmasa,  
Yil-kunda qadr qolmasa,  
So'z ham ne dardga doridir!

Maxtumquli, sen dam-badam  
Oxirat sari ur qadam,  
Yaxshi-yomon – barcha odam  
Ajalning giriftondir.

## **YOMG'IR YOG'DIR, SULTONIM!..**

Seningdek Qodirdan tilak tilarman,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!  
G'aribman, g'amginman, nolish aylarman,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Qodir Alloh, to'kkil nusrat boroni<sup>15</sup>,  
Ekinning hamdasti, yerning yoroni,

---

<sup>15</sup> Boron – yomg'ir. Nusrat boroni – yordam, madad, zafar, g'alaba yomg'in.

Yer-u ko'kning, Arshu Kursning Subhoni,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Bulbullar mast bo'lsin, olam evrilsin,  
Qayg'ular daf' bo'lsin, g'amlar sovrilsin,  
No'shirvon davridek jahon yayrasin,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Rahmating eshigi Arshdan ochilsin,  
Nuring inib, yer yuziga sochilsin,  
G'ubor ko'chsin, olam gardi yuvilsin,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Olam taqdir ko'zlar – Haqning farmoni,  
Jahonni serob et, ketsin armoni,  
Sendan bitar dardlilarning darmoni,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Bechora bandaman, ne bordir menda,  
Rahiyim – Sen, Rahmon – Sen, karam-kon Senda,  
Karaming bo'lmasa, qoldik armonda,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Dargohdan tilanar nolishli qullar,  
Munojot aylabon ochilar tillar,  
Yomonlik daf' bo'lib, yayrasin ellar,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

Maxtumquli, ishqing aylar iroda,  
Ishqingni komil et, qo'yma aroda,  
Yetkazgil maqsada, ma'shar<sup>16</sup> muroda,  
Rahm aylabon, yomg'ir yog'dir, Sultonim!

## CHIN BEDOVLAR MAYDONINDA BILINAR

Eshak o'zin kam deb bilmas bedovdan,  
Qiymat bersang, ot yoninda bilinar.  
Bedov degach, bo'lmas hamma bedov teng,  
Chin bedovlar maydoninda bilinar.

O'g'lonlikda bilmas eding, bek eding,  
Yomonga hech yoqmas so'zing, o'guting,  
Orif bo'lsang, aslin so'rma yigitning,  
Adabinda, ikrominda bilinar.

Bu jahondan to'ymas ko'zing, ser bo'lmas,  
Har tulkidan yo'lbars bo'lmas, sher bo'lmas,  
Yigit degach, hamma yigit bir bo'lmas,  
Bo'z yigitlar mehmoninda bilinar.

Davlat qo'nsa bo'z yigitning boshinda,  
Himoyatli eli kerak qoshinda,

<sup>16</sup>Ma'shar – 1) yumshoqlik va yaxshilik bilan yashamoq; 2) do'stlar va yaqinlar guruhi, umuman, guruh, to'da.

Yigit o'zin ma'lum etar ishinda,  
Qilichinda, zaboninda bilinar.

Maxtumquli, g'ariblarning ko'z yoshi  
Tog'larni yondirib, eritar toshi,  
Faqirga jabr etgan zolimning ishi  
Ro'zi mahshar devoninda bilinar.

## ADOLAT YAXSHI

Aslo odamzodga achchiq so'z qilmang,  
Faqir-u miskiniga dalolat yaxshi.  
Baxilga uchramang – kular yuz bo'lmang,  
Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Yetimni ko'rganda kular yuz bo'lgil,  
Qo'ldan kelsa, unga taom-tuz bergil,  
G'amginni ko'rganda shirin so'z bergil,  
Chorasiz qullarga himoyat yaxshi.

Yigit uldir, so'zga aylasa amal,  
Qo'ldan kelmas ishga etmasa jadal,  
Allohning amriga qilmagil badal,  
Bekka – saxo, shohga adolat yaxshi.



G'ariblik bir darddir – odam o'ldirmas,  
O'ldirmas, hayotda lekin kuldirmas,  
Bo'riga ajzini it ham bildirmas,  
Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.

Maxtumquli, shukur, shirin til berdi,  
Daraxtlar ko'karib, samar, gul berdi,  
Go'ro'g'li Rayhonga qanday yolbordidi? –  
Omonliq deganga diyonat yaxshi.

## **NIYATIM KA'BADIR, XAYOLIM HAJDIR**

Oltmish yashar, yetmish yashar so'filar,  
Oz qolibdir oy-kuningiz botmoqqa.  
Cho'l yerlarda tozi ko'rmas tulkilar,  
Xayol etar yotgan sherni otmoqqa.

Qarg'a aytar: "Yo'qdir mendayin shahboz",  
Ming qarg'a yig'ilsa, lochin bo'lmas, rost,  
Mitti kaltakesak kun qarg'ab nosoz,  
Dam chekadir ajdarhoni yutmoqqa.

Oqsoq kiyik yuz bo'rsiqqa yettirmas,  
Sher bolasi yuz tulkiga tuttirmas,  
O'lik ilon yuz kalxatga yuttirmas,  
Aql kerak bu ishlarga yetmoqqa.

Yetmish yashab, yod etmaslar tavbani,  
Xurram bo‘lib o‘ynatarlar gahbani<sup>17</sup>,  
Munkirlar jam bo‘lib, yiqdi Ka‘bani,  
Yazid ketdi og‘ochlarin sotmoqqa.

Boqing bu ayyomni, ko‘ring gardishni,  
Faqirga zulm etmoq bo‘ldi varzishi,  
Haq yo‘linda to‘g‘ri kezgan darvishni,  
Qo‘ymaydilar o‘z holiga yotmoqqa.

Yuragim sabrdan ketdi, qarordan,  
Yomon ishdır bug‘z aylamoq er, yordan,  
Ko‘p bezor bo‘libman bunday diyordan,  
Majbur qoldim boshim olib ketmoqqa.

Maxtumquli aytar: baxtim bevajdır,  
Nasibim, taqdirim, iqbolim kajdir,  
Niyatim Ka‘badir, xayolim Hajdir,  
Ixlosim bor, Haj tavofin etmoqqa.

---

<sup>17</sup>Gahba – bevafo, fohisha.

## YAXSHI QAYSI, YOMON QAYSI, BILINMAS

Dardim ko'pdir diyorimdan, davrimdan,  
Xayr qaysi, ehson qaysi – bilinmas.  
Zolimlarning jafosindan, jabrindan  
Islom qaysi, iymon qaysi – bilinmas.

Suhbatinda Haq kalomin so'ylash yo'q,  
Majlisinda bir nasihat aylash yo'q,  
Halol qaysi, harom qaysi – saylash yo'q,  
Sud qaysidir, ziyon qaysi – bilinmas.

Xaloyiqda qiyofa yo'q, ko'rim yo'q,  
Boylarinda saxovat yo'q, berim yo'q,  
Xotinlarda hayo, qizda sharm yo'q,  
Adab qaysi, arkon qaysi – bilinmas.

Kishining moliga ko'zni soldilar,  
Taassub-la dilga kiyina to'ldirar,  
Bir-birini nohaq holda o'ldirar,  
Najot qaysi, omon qaysi – bilinmas.

Maxtumquli, jon mehmondir, gavda – losh,  
Yaxshiga do'st ko'p, yomonga yo'q qardosh.  
Bu ayyomda bosh oyoqdir, oyoq – bosh,  
Yaxshi qaysi, yomon qaysi – bilinmas.

2008/131  
34  
Ilshor Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

## YAXSHIDIR

Odam o'g'li, bu olamdan o'tguncha,  
Ot chiqarib, obro'y olgan yaxshidir.  
Quzg'unlarning soyasida yotguncha,  
Burgut panjasida qolgan yaxshidir.

Benamoz qo'lindan taom ichmanglar,  
Istanmagan yerda guftor ochmanglar,  
Hargiz nomard ko'prigidan kechmanglar,  
G'arq bo'lib, daryoda qolgan yaxshidir.

Xotiring ko'rkidir moyalar, narlar,  
Ilmning quvvati – mardona erlar,  
Yolg'onchi – Allohning dushmani, derlar,  
Ammo o'z o'rnida yolg'on yaxshidir<sup>18</sup>.

Maxtumquli aytar: so'zim tog' oshmas,  
Nomard odam yo'ldoshiga qarashmas,  
Musibatxonada kulmoq yarashmas,  
To'ylar majlisida kulgan yaxshidir.

<sup>18</sup>“Ammo o'z o'rnida yolg'on yaxshidir” – bu o'rinda shar'an ruxsat berilgan, zaruratan urushda yoki ikki kishini yarashtirishda, fitnani daf etishda qo'llanadigan uzli yolg'onlar nazarda tutilgan.

## HOSILING NEDIR SENING?

Bormi bormoqqa joying, boshqa – Xudodan g'ayri?!  
Bormaganing bormidir, ro'yi siyo<sup>19</sup> dan g'ayri?!<sup>20</sup>

Kezgancha charxning ostin jahonda jonlar chekib,  
Ne talab bor senga bul jabr-u jafodan g'ayri?!

Haq etib, nohaq etib, yursang ko'zdan qon to'kib,  
Hosiling nedir sening jurm-u gunohdan g'ayri?!

Yeb-ichib, mahbub quchib, yotsang gar rohat ila,  
Toating qani saning, ro'yi siyodan g'ayri?!

Ko'z – go'zalda, nafs – yemak, til yana g'iybat bilan,  
Shavkating sharr<sup>21</sup>, boshda yo'q o'ylov havodan g'ayril

Avvali anglamadim, anglab so'zga yurmadim,  
Bu baloda kimsa yo'q men benavodan g'ayri!

Fikr ayla, Maxtumquli, foniya<sup>22</sup> boq, ne ko'rding.  
So'nggi yo'q, aldovi ko'p favt-u fanodan<sup>23</sup> g'ayri?!

<sup>19</sup> Ro'yi siyo – yuzi qoralik.

<sup>20</sup> G'ayri – boshqa, o'zga, o'zgasi.

<sup>21</sup> Sharr – yomonlik, yomon ishlar.

<sup>22</sup> Foniya – o'tkinchi, yo'q bo'luvchi; bu o'rinda mazkur sifat dunyo ma'nosida kelyapti.

<sup>23</sup> Favt-u fano – o'lim va yo'qlik.

## XABAR BER!

*Turdi shoir bilan dardlasib*

### **Maxtumquli:**

– Ul nimadir, yashil-qizil o‘sadir?  
Ul nimadir, oyog‘i yo‘q kezadir?  
Ul nimadir, yetti daryo suzadir?  
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

### **Turdi shoir:**

– Ul ekindir, qizil-yashil o‘sadir,  
Ul ilondir, oyog‘i yo‘q kezadir,  
Ul baliqdir, yetti daryo suzadir,  
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

### **Maxtumquli:**

– Ul nimadir, yoqasi bor, yoni yo‘q?  
Ul nimadir, qanoti bor, qoni yo‘q?  
Ul nimadir, odam yutar, joni yo‘q?  
Shoir bo‘lsang, shundan bizga xabar ber!

### **Turdi shoir:**

– Ul kafandir, yoqasi bor, yoni yo‘q,  
Kapalakdir, qanoti bor, qoni yo‘q,  
Qaro yerdir, odam yutar, joni yo‘q,  
Bizdan salom bo‘lsin, javob shundaydir!

**Maxtunquli:**

- Ul nimadir, darvozasiz qal’adir?
- Ul nimadir, derazasiz binodir?
- Ul nimadir, bir-biridan a’lodir?
- Shoir bo’lsang, shundan bizga xabar ber!

**Turdi shoir:**

- Ul ko’nguldir, darvozasiz qal’adir,
- Ul qabrdir, derazasiz binodir.
- Ul oy-kundir, bir-biridan a’lodir.
- Bizdan salom bo’lsin, javob shundaydir!

**Maxtunquli:**

- Ul nimadir, yemadilar, to’ydilar?
- Ul nimadir, qiyomatga qo’ydilar?
- Ul kim edi, tovonidan so’ydilar?
- Shoir bo’lsang, shundan bizga xabar ber!

**Turdi shoir:**

- Ul diydordir, yemadilar, to’ydilar,
- Ul namozdir, qiyomatga qo’ydilar.
- Nasimiyning tovonidan so’ydilar,
- Bizdan salom bo’lsin, javob shundaydir!

**Maxtunquli:**

- Ul nimadir, yetti o’lka kezadir?
- Ul nimadir, belin bir zot ezadir?

Ul nimadir, odam kabi sezadir?  
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

**Turdi shoir:**

– Ul cho'pondir, yetti o'lka kezadir,  
Ul qo'y erur, belin tayoq ezadir,  
Bedov otlar odam kabi sezadir,  
Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir!

**Maxtumquli:**

– Ul nimadir, tuproq uzra surinmas?  
Ul nimadir, odamlarga ko'rinmas?  
Ul nimadir, hech bir to'nga o'ranmas?  
Shoir bo'lsang, shundan bizga xabar ber!

**Turdi shoir:**

– Eranlardir, zalil bo'lib surinmas,  
Ul balodir, kelsa, ko'zga ko'rinmas,  
Yolg'on guring oshkor bo'lar, o'ranmas,  
Bizdan salom bo'lsin, javob shundaydir!



## OXIRZAMON ICHINDA

Ko'ngil, ne ish bitirding, kelding jahon ichinda,  
Qolding dunyo g'aminda, yuraging qon ichinda,  
Obod deya qo'l cho'zding, tagi vayron ichinda,  
Tan tuproqdir, aylanmas, javhari jon ichinda,  
Rustam qumga qorilib, qoldi yakson ichinda,  
Sen alarning yoninda qolmassan son ichinda.

Dunyolik deb choparsan, to ichingda dam bordir,  
Dam ichingdan chiqqanda boshingda ming g'am bordir,  
G'am ostinda yotarsan, na anga malham bordir,  
To'yimas ko'zing, to'lmoqqa bir hovuch xok-qum bordir,  
Bu jahonda, odamzod, sendan g'ofil kim bordir? –  
Qurtga, qushga nazar qil, kulli farmon ichinda.

Ey yoronlar, ul dunyo borgan bordir, kelgan yo'q,  
O'lik tirk holindan xabar, xotir bilgan yo'q,  
Charxi falak dastindan yig'lagan bor, kulgan yo'q,  
Fikr qiling, qardoshlar, ko'hnalardan qolgan yo'q,  
Yolg'onchining vafosi yo'qdir desam, yolg'on yo'q,  
Dunyoga bel bog'lagan qoldi ziyon ichinda.

Yo Iloho, Sen saqla qaroqchidan yo'llarda,  
Sog'-u so'lda sarsonlar qoldirmagin cho'llarda,  
Ko'ngil dunyo ishqinda, harom so'zlar tillarda,  
Men bir ojiz bandaman, kaminaman qullarda,

Ko'p gunohlar topibman oz fursatli yillarda,  
Xijolatda qo'ymagil yaxshi-yomon ichindal

Maxtumquli, aldaydi kelin dunyo bezanib,  
Ko'nglingni moyil qilma, unga qarshi tuzanib,  
Ne farog'at, yotarsan, qo'l-oyog'ing uzanib,  
Ajaj yotar oldingda, o'qin, yoyin kezanib,  
Mahshar kuni boraver iymoningni qozonib,  
Quruq kelding, bo'sh ketma oxirzamon ichindal

## **OQIL ULDIR, MAYL ETMASA DUNYOGA**

Kech, ko'ngil, dunyodan, aylama havas,  
Foniydir, hech kimga poyoni bo'lmas!  
Jon qushi bulbuldir, taning bir qafas,  
Bir kun uchar, doim turgoni bo'lmas.

Bir nechani shohlik bilan shod etib,  
Shahriyor deb, alam ichra yod etib,  
Ajajning dastidan bir kun dod etib,  
Ketdilar barisi, yurgoni bo'lmas.

Insu jinga shohlik etgan Sulaymon,  
Jamshid-u Iskandar, qani, Nushirvon?

Qani, Haq habibi – ul faxri jahon?  
Ketdi bari, hargiz gumoni bo‘lmas.

Qolmadi Doroying, na Shahriyoring,  
Qani, ul Gulchehra, siymin uzoring?  
Qani, shohsuvoring, zarrin Hisoring,  
Hech birining nom-u nishoni bo‘lmas.

Necha mursal kechdi, necha ming nabiy,  
Necha bolig<sup>24</sup> kechdi, necha ming sabiy<sup>25</sup>,  
Hosil bo‘lib har birining matlabi,  
Foniy ichra boqiy qolgoni bo‘lmas.

Kimni g‘aniy qildi, kimlarni g‘alloj<sup>26</sup>,  
Yo‘qsilni boylarga ayladi muhtoj,  
Kelsa, ajal bodi, bo‘lar noiloj,  
Ketgusidir, yaxshi-yomonu bo‘lmas.

Molu dunyo berib, necha ming g‘ani,  
La‘l-u javohirdan bo‘lib maskani,  
Ketdi, qo‘yib qasr-u, ko‘shk-u, ayvonni,  
Borgandan so‘ng, qaytib kelgoni bo‘lmas.

---

<sup>24</sup> Bolig‘ – balog‘atga yetgan, katta kishi.

<sup>25</sup> Sabiy – yosh bola.

<sup>26</sup> G‘alloj – g‘arib, kambag‘al, yo‘qsil, muhtoj.

Dunyoga kelganning bari yo‘q bo‘lar,  
G‘ofil odam bilmaslikdan aldanar,  
Yiqqaning barisi dunyoda qolar,  
Hech bir odam olib borgoni bo‘lmas.

Qomati sarvdek nozik badanlar,  
Zeb-u zanaxdonli g‘uncha dahanlar,  
Gul yuzli parilar, siymin zaqarlar,  
Olamda shod bo‘lib kulgoni bo‘lmas.

Yo‘q vafosi, do‘stlar, foniy dunyoning,  
O‘lguncha tark etma xayr-u ehsoning,  
Borgach, so‘ng kelmoqqa yo‘qdir imkoning,  
Inon, bu so‘zlarning yolg‘oni bo‘lmas!

Oqil uldir, mayl etmasa dunyoga,  
Siddiq ila sig‘insa qodir Allohga,  
Maxtunquli, bir surati zeboga  
Boqmagil, ularning poyoni bo‘lmas!

## BEKLAR

Mard bilan nomardning ishi teng kelmas,  
Nomardlar savashda ziyondir, beklar.  
Nomard bo‘z yigitning qadrini bilmas,  
Nomardning har ishi vayronidir, beklar.

Komil – bo‘z yigitlar haqqini yemas, Dunyo  
molin bersang, nomardlar to‘ymas,  
Nomard maslahatga – kengashga uymas,  
Nomardning har ishi ayondir, beklar.

Bir otada olti ota suyi<sup>27</sup> bor,  
Bir nodonning yuz xiyollik o‘yi bor,  
Bo‘z yigitlar qayga borsa, uyi bor,  
Nomardning o‘z uyi zindondir, beklar.

Davlat boshga kelsa, do‘st-yorin ko‘rmas,  
Qazo kelsa, bag‘rin yerdan ko‘tarmas,  
Haqdan deya hargiz iymon keltirmas,  
Maxtumquli, shunday zamondir, beklar!

## ORIF BO‘LSANG, SO‘Z MA‘NOSIN OCHARSAN

Mag‘rur bo‘lma sen bu qo‘ngan yurtingga,  
Bebaqodir, aylanmassan, ko‘charsan.  
Soqi ajal davr-davr<sup>28</sup> sunular,  
Sen ham borib, bir davrda icharsan.

Bu rabotda bir tingan yo‘q, oqqan yo‘q,  
Butun bozor, bir mustahkam do‘kon yo‘q,

<sup>27</sup> Suyi – nasli, xislati, suvi.

<sup>28</sup> Davr-davr – 1) vaqti vaqti bilan; 2) qadah-qadah.

G'amxonadir, aniq manzil-makon yo'q,  
Bu makonga kelgan bo'lsang, kecharsan.

Ayriliq yurakda dard-u dog'ingdir,  
Tavba qil Allohga, yigit chog'ingdir,  
Umring shu'la ursa, yurak yog'ingdir,  
Yog' tunganar, piltang yonar, o'charsan.

Tutqun bo'lib ilinsang gar qulloba<sup>29</sup>,  
Lahad qumga to'lar, xonang – xaroba.  
Suyak kulga ketar, taning turoba<sup>30</sup>,  
To'ymas-to'lmas yer bag'rini qucharsan.

Dunyo turar, hech tunganmas bir g'alva,  
Umr baqo bersa, qirqdir bir palla.  
Ajaj o'tdir, tan miltig'dir, jon – qulla<sup>31</sup>,  
Rizq yo'liga otash tushsa, ko'charsan.

Yaxshi soat, ajab vaqtdir, xush ayyom,  
Umr ozdir, aql – ko'toh, ishing – xom,  
Jon bir qushdir, dunyo – dona, falak – dom,  
Qachon bundan qutularsan, qocharsan?!

---

<sup>29</sup> Qullob – qarmoq, changak, ilmak.

<sup>30</sup> Turob – tuproq, xok.

<sup>31</sup> Qulla – cho'qqi, tog' cho'qqisi.

Maxtunquli so'zlar, so'zin so'nglarnas<sup>32</sup>,  
Bedard kishi dardli so'zin tinglarnas,  
Nodon so'zdan fikr aylarnas, anglarnas,  
Orif bo'lsang, so'z ma'nosin ocharsan.

## BEKLAR-SHOHLAR QOLMASLAR

G'am chekma, g'arib odam,  
Beklar-shohlarn qolmaslar,  
Azim-azim shaharlarn,  
Oq saroylarn qolmaslar.

Qolsa so'zdan qizil til,  
Jon – javhardir, tan bir kul,  
Hazor maqomli bulbul,  
Ulug' bog'lar qolmaslar.

Shuni anglabdir aqlim,  
Yig'ilar yetti iqlim,  
Yer bo'lar buklim-buklim,  
Erir, tog'lar qolmaslar.

Haqdan yetishsa farmon,  
Ne chora bor, ne darmon,  
Osmon, Quyosh, Oy larzon,  
Ham yulduzlar qolmaslar.

<sup>32</sup> So'nglarnas – oxirlatmas, rugatmas.

Na yer qolar, na yurtlar,  
Na turk qolar, na kurdlar,  
Na qush qolar, na qurtlar,  
Parrandalar qolmaslar.

Na gard qolar, na gardon,  
Na mard qolar, na mardon,  
Fil, pashsha-yu karkidon,  
Darrandalar qolmaslar.

Maxtumquli, yosh surgan,  
Og'ir hangomlar qurgan,  
Jo'shqin-jo'shqin mavj urgan  
Bu daryolar qolmaslar.

## **ODAM O'G'LI, YOTMA G'OFIL**

Odam o'g'li, yotma g'ofil,  
Tur-ho, tong otmasdan burun,  
Yigitlikda toat qilgil,  
Qarilik yetmasdan burun.

Qarilik toat qildirmas,  
Ishing abasdir, bildirmas,  
Falak yig'latar, kuldirmas,  
Sur davron, o'tmasdan burun.



Bandaga aylama qasdni,  
Ranjitmagil yor-u do'stni,  
Bir kun kelib, ajal dasti  
Yoqangdan tutmasdan burun.

Qardoshlaring yig'lab qolar,  
Yeng-yoqasiz to'nga solar,  
Bir kun omonatin olar,  
Sen tavba etmasdan burun.

Bu dunyoga kelgan kechar,  
Xaloyiq ul maydan ichar,  
Bir ajdarho og'zin ochar,  
Vahm ayla, yutmasdan burun.

Mashg'ulsan dunyo o'yniga,  
Kirarsen yerning qo'yniga,  
Ajal bandaning bo'yniga,  
Qayta qol, minmasdan burun.

Ajal barchani adolar,  
Qolmaslar shoh-u gadolar,  
Haromdan qoch, kadxudolar<sup>33</sup>  
Ro'siyo<sup>34</sup> bo'lmasdan burun!

---

<sup>33</sup> Kadxudolar – 1) uy, oila sohiblari; 2) hukmdorlar, podshohlar.

<sup>34</sup> Ro'siyo – yuzi qora.

Saqla g'iybatdan tilingni,  
Bog'latma ikki qo'lingni,  
Ochilgan toza gulingni  
Alloh so'ldirmasdan burun.

Bandaga etma xiyonat,  
Bari jon Tangriga omonat,  
Bu so'zda bor hadis, oyat,  
Fahm ayla, o'lmasdan burun!

Tur sahar, Tangriga yig'la,  
Haq deya yuraging dog'la,  
Tavba qur<sup>35</sup> mahkam bog'la,  
Qirqingga kelmasdan burun!

Maxtumquli, to'g'ri so'yla,  
Umring kelib, ketar bo'yla,  
Zinhor keksalarni siyla,  
Bosh go'rga kirmasdan burun!

## AYLANMAS

Bulbul navo qilgan havoli bog'lar.  
Bulbul sendan ketar, fig'on aylanmas.  
Yoqimli, yomg'irli, umrli tog'lar,  
Sellar sendan ketar, tumon aylanmas.

---

<sup>35</sup> Qur – o'rama belbog'.

Odam yaratilmish balandli-pastli,  
Aqli, fikrli, dalili-mastli,  
Yigitlik bir ko'yga – bahorning fasli,  
Bahor sendan ketar, zamon aylanmas.

Kelganni qarshila, bo'lsa, majoling,  
Yaxshi tutavergil niyating, fe'ling,  
Dunyo davronunda ochiq tut qo'ling,  
Davr sendan ketar, davron aylanmas.

Bu dunyo g'avg'odir, bir qol-maqoldir,  
Kimi "Berho-ber"dir, kim "Olho-ol"dir,  
Yigitlar, bu dunyo shunga misoldir,  
Barq<sup>36</sup> urar osmonda, boron aylanmas.

Bu manzildir uch kun sen yeb-ichganda,  
O'rnashib, tirmashib, beling ochganda,  
Uzanging tortarlar, to'rt kun kechganda,  
Besh kundan yuqori mehmon aylanmas.

Bag'rin ochar bir kun, yer seni gizlar,  
Qaro xokdan to'lar bu nargis ko'zlar,  
Otingga ishonma, chamanli tuzlar,  
Chaman senda qurir, jayron aylanmas.

---

<sup>36</sup> Barq – chaqin, momogukdurak.

Maxtumquli aytar orif do'stiga,  
Kim qolar tushmasdan ajal dastiga?  
Falak bir kun solar yerning ostiga,  
Og'izdan til ketar, zabon aylanmas.

## TOPILMAS

Duomga duch kelgan ko'karar guldek,  
Gulning mavsumidek davron topilmas.  
Qahrinning otashi kuydirar kuldek,  
Kul o'rnida qaytib bo'ston topilmas.

Ko'ngil musofirdir, jasad yurttadir,  
Jonim jo'shqindadir, yurak darddadir,  
Fikrim komildadir, ko'zim marddadir,  
Shum shartimdan hech bir mardon topilmas.

Ko'ngil qo'ygil go'zal Alloh ko'yiga,  
Mashg'ul bo'lib yotma malo<sup>37</sup>, o'yinga,  
Odamzod mehmondir dunyo uyiga,  
Bir kun uy ichinda mehmon topilmas.

G'aflet ichra g'ofil yotma, turaber,  
Har ne bersang, qo'ling birla beraver.  
Tiriklikda o'lim ishin ko'raver,  
Bir kun jasad ichra bu jon topilmas.

<sup>37</sup> Malo – yig'in, to'da.

Ko'ngil ovlayin deb uchrasam har yon,  
Da'vodir, urushdir, koyish topar jon,  
Aytilmas nasihat, o'qilmas Qur'on,  
Jonga yoqar adab-arkon topilmas.

Dargohga duom ko'p, nolishim behad,  
Toleyim zabundir, tanim bequvvat,  
Qochganim – anjuman, istagim – xilvat,  
Menga hech bir joyi pinhon topilmas.

Maxtumquli jon taqdirga tan berdi,  
Har kim o'zin saqlay bilsa, naf ko'rdi,  
Qanday yomon zotdir, anglamas dardni,  
Johillik dardiga darmon topilmas.

## ODAMZOD

Yotsa-tursa, xayolindan chiqarmas,  
Qaysi ishga moyil bo'lsa odamzod.  
G'ariblikning g'ami ko'nglin cho'ktirmas,  
Ayol istab, soyil<sup>38</sup> bo'lsa odamzod.

Gunohdan qo'rqmagan ro'yi siyodir,  
Buning ma'lum kuni ro'zi jazodir<sup>39</sup>,  
Bu dunyo mulkida sultondir, shohdir,  
Qismatiga qoyil bo'lsa odamzod.

<sup>38</sup> Soyil – so'rovchi, ulanchi.

<sup>39</sup> Ro'zi jazo – qiyomat kuni.

Har kishikim, so'z-ma'niga tushmondir<sup>40</sup>,  
Bir dardlidir, darmon unga dushmandir,  
Qiyomat kun hamma ishi pushmondir,  
Haq ishiga kohil<sup>41</sup> bo'lsa odamzod.

Iqbollining qilgan ishi o'ng kelar,  
Dunyo yuzi qo'lga kirsam, teng ko'rar,  
Bolalikda kechgan ishlar tang qilar,  
Qirqdan oshib, oyil<sup>42</sup> bo'lsa odamzod.

Fikr ayla jahonning rohin, ravishin,  
E'tibor etmagil dunyo turushin,  
Maxtumquli yaxshi ko'rmagay ishin,  
Qirqidan so'ng johil bo'lsa odamzod.

## FONIY DUNYOGA INONMANG

Xarning ishi xardir, do'stlar,  
Ming maqtasang, otcha bo'lmas.  
Badaslgam amal tegsam,  
Biling, asl zotcham bo'lmas.

Foniy dunyoga inonmang,  
Oltin-kumushgaga quvonmang,

<sup>40</sup> Tushmondir – tushunmaydir ma'nosta.

<sup>41</sup> Kohil – sust, bo'sh, tanbal, yalqov.

<sup>42</sup> Oyil – hushyor, o'ziga kelgan, tuzalgan.

Ko'ngilsizga ko'ngil bermang,  
Bir tuqqan zuryodcha bo'lmas.

Ko'p yo'llarni ko'rsa ko'zing,  
Har ma'nidan bilsang o'zing,  
Bir nodonga aytgan so'zing  
Esib ketgan bodcha bo'lmas.

Boshing yostiqqa yetganda,  
Sabr-u qaror bo'lmas sanda,  
Kuching-quvvating ketganda  
O'g'il-qizing yotcha bo'lmas.

Maxtumquli, ajab chog'lar,  
Kimdir kular, kimdir yig'lar,  
Turli meva bergan bog'lar  
Sovrilar, Jannatcha bo'lmas!

## **QUR'ONGA QULOQ SOLIB, FARMONGA NAZAR AYLA**

Tan qafasga giriftor, kel, jonga nazar ayla,  
Boq ko'ngul ko'zqusiga, jononga nazar ayla,  
Ibrat ko'zini ochib, jahonga nazar ayla,  
Ikki kema tutmagil, bir yonga nazar ayla,  
Hech kimga boqavermas, davronga nazar ayla,

Davroniga tayangan insonga nazar ayla,  
Bu qo'nib-ko'chib borgan karvonga nazar ayla.

Bu davron ichra ko'ngul qushlari aylar parvoz,  
Go'yo murg'i sahardur, shab suxan aylar og'oz,  
Bog' ichra bulbul bo'lib, o'qir nag'ma, hazor soz,  
Xudoga tavba aylab, dargohiga qaytdim boz,  
Umr oz, davron daroz, ne ro'za bor, ne namoz,  
Uyg'on xobi g'aflatdan<sup>43</sup>, Hashr misol – fasli yoz,  
Olimlar tasbih aytar, har yonga nazar ayla!

O'lmasman deb, tushmasin ko'ngling bu gumon ichra,  
Umrda yo'q e'tibor, o'tkinchi zamon ichra,  
Ajral qo'ymish o'q-paykon, kiray deb kamon ichra,  
Bandaga ne armondur, jon bersa iymon ichra,  
So'zla, so'zing yoyilsin bu yaxshi-yomon ichra,  
Oz umrda og'ir ish ko'ribsan jahon ichra,  
Muqim ishini tutgan mehmonga nazar ayla!

Voh, ne xushdir oshiqqa, xilvat, yorga ulashmoq,  
Hol-ahvolin so'rashib, qo'l bo'yinga solishmoq,  
Mahsharning hashri yanglig', tan-jon kabi bo'lishmoq,  
Bir-biriga dard to'kib, sarguzashtin qilishmoq,  
Tob berilgan rishtaday chirmashibon chalishmoq,  
Do'stlar, ne mushkul ishdir, qovushib, ayrilishmoq,  
Visolga mag'rur bo'lma, hijronga nazar ayla!

<sup>43</sup> Xobi g'aflat – g'aflet uyqusi.



Maxtumlari so'zlatmay qo'yimas turmoqqa darding,  
Yolg'onchida aylanib, oltmish tomon qo'l kerding,  
Foniyni boqiy bilding, yelding, esding, yugurding,  
Do'stingga izo berding, dushmaningga yuz burding,  
Ojiz joning fido qil soyasida bir mardning,  
O'tuz to'rt yoshga bording, bu jahonda ne ko'rding?!  
Qur'onga quloq tutib, farmonga nazar ayla!

## ASLING NEDIR, ETGIL NAZAR

Odam o'g'li, o'zing bilmay,  
Qadam-qadam o'tajaksan.  
Egangning amrini qilmay,  
O'z ko'nglingni kutajaksan.

Istarsan olamni olsang,  
Qorun bo'lib, ganjga botsang,  
Halol-harom – har ne topsang,  
Ko'zing yumib, yutajaksan.

Nedan bo'lding, bilgil borni,  
Unutding Parvardigorni,  
Dilga kelgan har ne korni,  
Fikr qilmay, etajaksan.

Asling nedir, etgil nazar,  
Tutgan ishingdan qil hazar,  
Ajal senga etsa guzar,  
Xabarin ber, netajaksan?

Dunyoni qizg'onch tutmagil,  
Ishing ko'r, bekor yotmagil,  
Maxtumquli, unutmagil,  
Ketajaksan, ketajaksan!

## KO'NGUL

Bilmasam hech, qaysi dardning muhtalosidir ko'ngul,  
Yo Rab, ul bir benavoning ko'p havosidir ko'ngul.

Ishq daryodir, tubi yo'q, hijron bir o't – o'chmagay,  
Ishqqa mayl etgan bu o'tlarga yonosidir ko'ngul.

Bilmagan otmish o'zin ishq o'tiga parvonadek,  
Endi bilmas chorasinkim, ne qilosidir, ko'ngul,

Iysoning dami muhol<sup>44</sup>, Luqmon u yerda gung-u lol,  
Yo Rab, ul dardning muhol ish davosidir, ko'ngul.

---

<sup>44</sup> Muhol – nomumkin, mumkin bo'lmagan ish, imkoni bo'lmagan narsa.

Garchi ishqning dardidir, devonayi jon ofati,  
Oshno ahli bu g'amni doim egosidir, ko'ngul.

Necha mahram benavolar topdilar andin navo,  
Man'edan<sup>45</sup> andan meni, boqdim siyosiydir, ko'ngul.

Yig'labon, Maxtumquli, dargohga arzing aytaver,  
Ne uchun, ko'p yig'lagan bir kun kulosidir, ko'ngul.

## YUZIM YUVSAM YOSHLAR BILAN

Ko'ngil aytar: xalqdan qolib,  
Kezsam tog'lar, toshlar bilan.  
Yozig'imni yodga olib,  
Yuzim yuvsam yoshlar bilan.

Har kim, ko'rsam, bir peshada,  
Mening ko'nglim andishada.  
Ko'hisor ichra ko'chada  
O'tirsam og'ochlar bilan.

Qari dunyo ol<sup>46</sup> ichinda,  
Odamzod xayol ichinda,  
Jahon qol-maqol ichinda,  
Har kim yuz taloshlar bilan.

<sup>45</sup> Man'edan – man' etgan, to'sgan, to'xtatgan.

<sup>46</sup> Ol – hıyla, firib.

Allohning ishqinda mastlar,  
Bas kelolmas zabardastlar,  
Ko'ngil parvoz etar, do'stlar,  
Tinmas yuz ilojlar bilan.

Ko'p ko'ylar bilan o'tirdim,  
Bilmadim, ne ish bitirdim,  
Gumroh bo'lib, yo'l yitirdim,  
O'tirdim bevoshlar bilan.

Bekor qo'yma umr taxtin,  
Uyg'otsak uxlagan baxtin,  
Duo qilib sahar vaqti,  
Nolish qilsam qushlar bilan.

Maxtumquli, tavfiq olsam,  
Bir pir topsam, qulluq qilsam,  
Ko'ngil aytar: yo'ldosh bo'lsam,  
Dam chekkan darvishlar bilan.

## **QANOTIM YO'Q, UCHA BILMAM, NAYLAYIN**

Ko'ngil istar, kezsam dunyo-olamni,  
Qanotim yo'q, ucha bilmam, naylayin!  
O'qirmen, ko'rarmen "Favzul-kalom"ni,  
Ma'nosini socha bilmam, naylayin!

Ko'plar unda g'avvos bo'lib suzarlar,  
Menga zohir, xalqdan pinhon kezarlar,  
Gul bodada gulgun sharob ezarlar,  
Qo'l uzatib, icha bilmam, naylayin!

O'y dastidan sharob isin no'sh qildim,  
Ketdi aqlim, o'zim bilmay, jo'sh qildim,  
Sarmast bo'ldim, darsiz<sup>47</sup> ko'shkka duch bo'ldim,  
Ruxsat bo'lmay, ocha bilmam, naylayin!

Yitti yo'lim, tog' qaysidir, tuz qaysi,  
Bilmas ko'nglim, ma'no qaysi, so'z qaysi,  
Fahm aylamam, yo'l qaysidir, iz qaysi,  
Umid uzib, qocha bilmam, naylayin!

Maxtumquli, bu dunyoning hammasin,  
Yig'ib, tugib, qo'lga berdim nomasin.  
Fikr daryosiga aqlim kemasin –  
Botirganman, kecha bilmam, naylayin!

---

<sup>47</sup> Darsiz – eshiksiz.

## TURDI SHOIR, SENDAN SO‘RAB KO‘RAYIN<sup>48</sup>

Turdi shoir, sendan so‘rab ko‘rayin,  
O‘tgan Payg‘ambarning yoshi nechadir?  
Hukmi Sulaymonning yashil taxtining,  
Maxrajin eshigi, qoshi nechadir?

Ul kim edi, yurtidan ko‘chdi – tarqadi?  
Ul kim edi, do‘stin qo‘ldan sudradi?  
Ul kim edi, ishqqa sahro uchradi,  
Samardan asosi, peshi nechadir?

Ul kimdir, boqiyda muftalo qolgan?  
Ul kimdir, eliga tolonlar solgan?  
Qirq yil hijron chekib, sarg‘ayib-so‘lgan,  
O‘ziga gurz urgan kishi nechadir?

Ul ne qordir, mudom yog‘ar, erimas?  
Ul ne daryo, mudom jo‘shar, horimas?  
Ul ne odam, suv ichinda chirimas,  
Oqar ko‘zlarining yoshi nechadir?

Ul ne daraxt, oltmish ikki butog‘i,  
Qirq sakkiz ko‘z – o‘q, o‘n ikki sadog‘i,

<sup>48</sup> Savol tarzidagi ba‘zi she‘rlar kitobda javobsiz kelgan. Ehtimol, javobi boshqa bayozlarda bordir. Kitobxon tafakkur qilmog‘i uchun javobsiz she‘rlarni ham saylanmaga kiritdik. (Tarjimon)

Ul ne xondir, sakkiz erur o'tog'i,  
O'tog'in ichining oshi nechadir?

Ul kimdir, boqiyda bir ravshan ko'z bor,  
Oldida ma'nisi, to'rt ming to'rt yuz bor,  
Otasi eridir, oshiq bir qiz bor,  
Qo'shilmas hurlarga, toshi nechadir?

Maxtunquli aytar: yod etgil bizi,  
Yettidir qarosi, oqdir sakkizi,  
Bir suratda nedir, oldir to'qqizi,  
Boshidagi aqlu hushi nechadir?

## OSHIQLAR HAQ ISHQINDA

Oshiqlar haq ishqinda  
Hayrondadir, hayronda.  
Ko'zlar zaif izinda,  
Giryondadir, giryonda.

Qildi anga Haq rahmat,  
Nuri tajalliy qudrat,  
Xirqa kiygan Xoja Ahmad  
Sayramdadir, Sayramda.

Yerdan chiqqan og'ochlar,  
Tili sanoli qushlar,

Subhon suygan darvishlar  
Davrondadir, davronda.

Ayil<sup>49</sup>, oshig'ım, ayil,  
Majnun bo'l, xalqqa yoyil,  
Xalil o'g'li Ismoil  
Qurbondadir, qurbonda.

Tur tog'ında turanlar,  
Necha g'oyib eranlar,  
Jamolini ko'ranlar  
Farmondadir, farmonda.

To'ldirgan bu dunyoni,  
So'zlar har du saroni<sup>50</sup>,  
Kulli ishning bayoni  
Qur'ondadir, Qur'onda.

Maxtumquli, och tillar,  
Qulluq qil oylar, yillar,  
Erta qulluqsiz qullar  
Armondadir, armonda.

---

<sup>49</sup> Ayilmoq (oyilmoq) – hushyor bo'lmoq o'ziga kelmoq.

<sup>50</sup> Har du saro – har ikki jahon: dunyo va oxirat.



## MASHG'UL BO'LING TOAT BILAN

Umr besh kun, manzili uch,  
Davroning bir soat bilan,  
Yurar karvon, chekilar ko'ch,  
Yotibsan farog'at bilan.

Sen dema: birov qo'l cho'zar,  
Oqillar munda ish ko'rar,  
Beaqlar hangom<sup>51</sup> qurar,  
Ishrat istab, rohat bilan.

Kofir nafs-u, shaytondir shum,  
Ishlar tutar, aylab hujum,  
Bir kun chiqarsan-ku mahrum,  
Kezma xush qanoat bilan.

Jonga jaf o ber, nafsga hay,  
Ish qil, oxirat g'amin ye,  
Payg'ambarga salovat de,  
Shavq etsang<sup>52</sup> shaf o at bilan.

Banda bo'lsang, odamzod bo'l,  
Jabbor demabdur: "Jallod bo'!"  
Xayr ishlab, bor, ozod bo'l,  
Uyalma xijolat bilan.

<sup>51</sup> Hangom – yig'in, o'ltinsh, guring.

<sup>52</sup> Shavq etsang – qiziqsang, umid etsang, ma'nosida.

Odam o'g'li o'zin bilmas,  
Nafs payinda bekor bo'lmas,  
Qismatından qarich qolmas,  
Kezsang yuz xayolot bilan.

Maxtumlul der: ey yoron,  
Xalq tutgan ishga men hayron,  
Kechar fursat, o'tar davron,  
Mashg'ul bo'ling toat bilan!

## O'QIDIM QUR'ON ICHINDA

Ey yoronlar, musulmonlar,  
Bir kecha sayron ichinda,  
O'ttiz ikki kishi ko'rdim,  
Ul Shohi Mardon ichinda!

Ularga berdim salomni,  
So'rdilar sog'lik kalomni,  
Shayxi Sayyid, Mavlo Jomiy –  
Ul yetti sulton ichinda.

Sulton Vays pahlovoni,  
Hakim Ota, Sulaymoni,  
Xoja Yusuf Hamadoniy,  
Ul Shohi Kan'on ichinda.

Turkiston egasi – sarvar,  
Imom Qosim, Imom Ja'far,  
Yahyo bilan Nuh Payg'ambar,  
Boyazid Sulton ichinda.

Go'zal pirlar, go'zal yorlar,  
Chekdilar bu yo'lda zorlar,  
Imom Rizo, Shoh-u pirlar,  
Necha go'zal jon ichinda.

Maxtumquli, sirim ko'pdir,  
Men naylayin, ochgan yo'qdir,  
O'lmoq haq, tirilmoq haqdir,  
O'qidim Qur'on ichinda.

## **BIR ALLOHGA AYTAY HAMD-U SANOLAR**

Bir Allohga aytay hamd-u sanolar,  
Bir qisim tuproqdan inson yaratdi.  
Tan qafasin qilmoq uchun munavvar,  
Jon nuridan sham'i tobon yaratdi.

Ko'rmoqqa ko'z berdi, tilga maqolat,  
Jonni qo'ydi tanda besh kun omonat,  
Azalda har kimga qilsa inoyat,  
Ko'kraginda nuri iymon yaratdi.

Avvalo yaratdi Odam Atoni,  
Unga juft ayladi Havvo anoni,  
Firdavsi a'loda edi makoni,  
Anga dushman mal'un shayton yaratdi.

Haqdan nuzul bo'ldi Musoga Tavrot,  
Injil vasfin Iyso ayladi isbot,  
Dovud Zabur o'qib, qildi munojot,  
Muhammad sha'ninda Furqon "yaratdi"<sup>53</sup>.

Muhammadni sarvar aylab jahona,  
Dedi: "Payg'ambari oxir zamona".  
Jabroildan vahiy aylab ravona,  
Kofirlarga Shohimardon yaratdi.

Birni past ayladi, birni sarbaland,  
Birni faqir aylab, birni davlatmand,  
Birni xor ayladi, birni arjumand,  
Birni gado, birni sulton yaratdi.

Ovozasi tushub Rum-u Yamanga,  
Misr, Shomu Hindistonu Dakanga,  
Dong'i ketib Xitoy bilan Xo'tanga,  
Bir amiri Sohibqiron yaratdi.

---

<sup>53</sup> Aslida Furqon, ya'ni Qur'on yaratilmagan. Bu yerda baytdagi bu lafzni Payg'ambarimizga nozil qilingandan keyingi Qur'onning lafz, harf bo'lib o'qilishi, kitobat qilinishi deb tushunmoq kerak.

Jasorati beglar ichra shohona,  
Shijoat bahrida durri yagona,  
Ermuhammad Shohdan qoldi nishona,  
Tangrim uni mardi maydon yaratdi.

Qaro yerdan yashil sabza ko'kartib,  
Har daraxtdan turluk meva chiqartib,  
Kundan-kun bog'larning mevasi ortib,  
Gul ochilib, bog'-u bo'ston yaratdi.

Maxtumquli aytar Haqqa sitoyish<sup>54</sup>,  
Har mushkul ishimga sensan kushoyish,  
Kecha-yu kunduzga berib namoyish,  
Xurshid bilan mohi tobon yaratdi.

## **BIZDAN SALOM BO'LSIN TURDI SHOIRGA**

Bizdan salom bo'lsin Turdi shoirga,  
Qay mehrobdan so'zlab chiqqan o't nadir?  
Kimdir o'lib, bir yildan so'ng bilindi?  
To'qqiz yuzdan tuqqan nim zuryod nadir?

Sen Ko'zli otasan, biz – Karkaz eli,  
Cho'l yerda kezarsan, yod etib xayli,

<sup>54</sup> Sitoyish – Alloh taologa hamd-u sano aytish.

Bildingmi, tamug'ning chekilgan mili,  
Xabar ber aslini, Pulsirotnadir?

Aslinga yetishgil, yolg'onda, chinda,  
So'z qisqadir, ma'ni ko'pdir ichinda,  
Bilarmisan, qaysi daryo ichinda,  
Odamzod jigarli yotgan hut nadir?

Ne og'ir sarpodir, qaysi avjida,  
Olam halok bo'lar necha tovushda,  
Qudrat bilan, to'rt yuz nadir bir boshda,  
Tebranganda undan chiqqan o't nadir?

Ne siyna, ne jondir, so'yla bu sirdan,  
Belidan pastrog'i bo'lmish hajrdan,  
Oshiq, bayon ayla, qaysi shajardan  
Ham jonli, ham jonsiz tuqqan zot nadir?

Ul kimdirki, ko'z yoshini toshdirdi?  
Necha yilda ijobatin tushdirdi?  
Ul kim edi, zalolatin jo'shtirdi?  
Murod qo'lda turib, nomurod nadir?

Maxtumquli aytar: oshiq, bu sirda,  
Kalovlanmay, to'g'ri so'yla bu yerda,  
Shuni bilarmisan, qaysi shaharda,  
Tarki qulluq etgan ikki zot nadir?

## CHILIMKASH<sup>55</sup>

Haq seni ra'yingga qo'ymish jahonda,  
Qila bilganing qil bunda, chilimkash.  
Devon qurilgan kun hisob joyinda,  
Javobing nimadir unda, chilimkash?!

Quvvating kamayar, kuching oz turar,  
Kayfi boshga ursa, aqling ozdirar,  
So'ngaging qaqshatib, eung qizdirar,  
Bir nishona budir senda, chilimkash!

Qo'lingni tort bunday nohaq taloshdan,  
Puling kuyar, iching yonar bu ishdan,  
Erta qorning to'ldiralar otashdan,  
Zaxmi chiqmas, qolar jonda, chilimkash!

Ikki dunyo yaxshilik yo'q egriga,  
Erkak bo'lsang, qadam qo'ygil to'g'riga,  
Benamozga, g'iybatchiga, o'g'riga  
Yo'ldosh bo'lar yovuz kunda chilimkash.

Maxtumquli, Mavlom jondan yaqindir,  
Chilim achchiq tutun, tan bir zamindir,  
Iymon bir qushdir-u, gavda bir indir,  
Qush turmagay buzuq inda, chilimkash!

<sup>55</sup> Hozirgi zamonda ba'zi turkiy xalqlarda sigaret ham chilim deyiladi.

## NOSKASH

Avvalo Haq amridan ovvora bo'lgan noskash,  
Sho'r bo'lib peshonasi, yuz pora bo'lgan noskash,  
Fe'li shaytonga asir-u qora bo'lgan noskash,  
Chun azalda Vohidul-Qahhora<sup>56</sup> bo'lgan noskash,  
Nafs uchun jondan kechib, bemora bo'lgan noskash.

Noskash ikki jahonda bo'lmas aslo shodmon,  
Burnidan zardob ila sassiq suv oqgay har zamon,  
Ko'p alam tortar, bilinglar, bang, chilimdan nos yomon,  
Nos chekmoqlik xos yomondir, chun zino, g'iybat, yolon,  
Yuz dalil, sad makr ila oshkora bo'lgan noskash.

Ko'p hadis aytdi Muhammad: nos haromdir, nos harom,  
Kim haromni odat etsa, nosga qilsa ehtimom,  
Jon chiqib, bul xonadan ul xonaga bosganda gom,  
Ixlos etmay, to'g'ri ketmay, egri ketsa subhu shom,  
Xonayi islom-u din kuffora bo'lgan noskash.

Tong-la mahshar noskashi bir yerga eltar, benavo,  
Oqibat etgay uni dard-u baloga muftalo,  
Bandasidan qilgusi bir-bir savolini Xudo,  
Telmurib turmoqdan o'zga chora toptirmas ango,  
Yuzlari misli qozonday qora bo'lgan noskash.

<sup>56</sup>“Li manil-mulk? – Lilloxil-Vohidul-Qahhor”, ya’ni “Bu kun mulk – podshohlik kimnikidir? – Yagona va g’olib (qahr qilguvchi) Allohnikidir” degan oyati karimaga ishora.



Burnin eshak burniday tilgay farishta noskashing,  
Aytur: “Ey farzandi Odam, boshga tushdi tashvishing,  
Qaydadir, uqbo<sup>57</sup> yo‘liga taqdim etgan peshkashing,  
Dunyoda ravshan ko‘zing, anduhing bo‘ldi boshing” –  
Degach ul kun, oh urib, afgora bo‘lgan noskash.

Nos halol, deb ba‘zilar, bunday xayoli xom etar,  
Yo‘q qilib qancha pulin, ham ko‘nglini orom etar,  
Burnidan oqsa najas, har dam husuli kom etar,  
Bas, o‘zi bilmay, jahonda o‘z-o‘zin badnom etar,  
O‘zni bilmay, ushbudek raftora bo‘lgan noskash.

Bir so‘mi bir ajdaho bo‘lgay qiyomatning kuni,  
Aytishur: “Kayf yo‘liga sen nega sarf etding muni?”,  
Hech ilojin topmayin, og‘ziga tutgay dastini,  
Qichqirib faryod etar, zahrnini solgay dushmani,  
Naylar, ul kun do‘zaxa nazzora bo‘lgan noskash.

Ajdahoning zahridan ul noskash g‘amnok bo‘lur,  
Kayfni hol bilgan kishining diydasi namnok bo‘lur,  
Shiddatidan o‘t ichinda noridan ko‘ylak bo‘lur,  
Ko‘rsa ul har ne alomat, har qachon muhlak<sup>58</sup> bo‘lur,  
Topmayin hargiz iloj, bechora bo‘lgan noskash.

---

<sup>57</sup> Uqbo – oxirat.

<sup>58</sup> Muhlak – halokat, halok bo‘lish.

Mujtahid qavli, hadisi anbiyodir: noskash,  
Har qachon kelsa boshiga qaddi nayza ul quyosh,  
Tashnalikdan og‘zin ochib, it kabi bo‘lg‘ay atash<sup>59</sup>,  
Har nafasda nafti<sup>60</sup> nos birla bo‘lolmas chorakash,  
Aytadir Maxtumquli: “Xunxora bo‘lgan noskash!”.

## G‘IYBATCHI

Mahshar kuni shikoyat bor tilingdan,  
Rasvoliging shudir sening, g‘iybatchi!  
Umring yelga berma, ozma yo‘lingdan,  
Ranjitmagil eling, kuning, g‘iybatchi!

Bulutdek o‘kirib, chaqindek gurlar,  
Gohi muzdan taxtlar, olovdan yerlar,  
Xachirdek chayonlar, bug‘rodek<sup>61</sup> morlar,  
Badaningdan so‘rar qoning, g‘iybatchi!

Holing ko‘rib, hayron bo‘lib yig‘larlar,  
Seni Sijjyn<sup>62</sup> otli joyda bog‘larlar,  
Tiling tortib, temir bilan dog‘larlar,  
Qora bo‘lar ul Kun kuning, g‘iybatchi!

<sup>59</sup> Atash – tashnalik, chanqoqlik, xumor.

<sup>60</sup> Naft – qora moy.

<sup>61</sup> Bug‘ro – ikki o‘rkachli tuya.

<sup>62</sup> Sijjyn – 1) qattiq zindon; 2) shaytonlarning va mujrim jinoyatchilarning amallari bitilgan kitob; 3) fojirlar va kofirlarning nomi qayd etilgan mavze; 4) do‘zaxdagi bir vodi; 5) yerning yettinchi qavatida turadigan qattiq tosh.

Yomon soʻz ajratar yaxshi doʻstingdan,  
Gunohing yuklari bosar ustingdan,  
Jahannam ichinda tamugʻ ostindan  
Falaklarga chiqar uning, gʻiybatchi!

Malaklar, koʻtarib gurzi urarlar,  
Andomingdan suvdek oqar zaharlar,  
Vashillab turgaydir yoningda morlar,  
Qaqshatib soʻrilar taning, gʻiybatchi!

Bir dam qutulmassan doʻzax norindan,  
Taningga oʻralgan ilon zahrindan,  
Shul azobda hasratingdan, zoringdan  
Falaklarga uchar uning, gʻiybatchi!

## KOʻZ YOSHIN TOʻKMAGAN ERDAN...

Hech koʻngul shodligi chiqmas,  
Bir koʻngul yoqmagan erdan.  
Yaxshilik tamasin qilmang,  
Yomonlik chekmagan erdan.

Kimsa bilan bekklik etar,  
Bir toʻp bilan bir yoʻl tutar,  
Kadxudolik yiroq ketar,  
Yomon soʻz chekmagan erdan.

Yaxshi er – el aybin ochmas,  
Ko‘rib-bilib, harom ichmas,  
Yaratgan gunohin kechmas,  
Ko‘z yoshin to‘kmagan erdan.

Turmagay, ayyom evrilar,  
Zamon o‘tar, charx chevrilar,  
Ulug‘ davlatlar ayrilar,  
Yakdillik tutmagan erdan.

Qochoqlarga yasoq kuni,  
Sher qurtga bermas ovini,  
Payg‘ambar bezor, g‘am kuni –  
Yo‘ldoshga boqmagan erdan.

O‘z-o‘zidan aqli yetmas,  
Oqillarning so‘zin tutmas,  
Yo‘qsillik yo‘q bo‘lib ketmas,  
Bad ish tark etmagan erdan.

Maxtumquli, yongil, ochg‘il,  
Yo jim o‘ltir, yo dur sochgil,  
Bir dumsiz it erur, qochgil –  
Nasihat yoqmagan erdan.

## UMMAT YAXSHIDIR

Savdogarlik qilib, bozor kezgandan,  
Olsang nasihatim, qimmat yaxshidir.  
Hotam bo'lib, ammo riyo qilgandan,  
Ko'ngilda qilingan himmat yaxshidir.

Bir mard yaxshi, muxannasning yuzindan,  
Hisob kuni oqar qoni ko'zindan,  
Har kim boshqa bo'lsa aytgan so'zindan,  
Undan ~~dinga~~ qaytgan Yazid yaxshidir.

Xayr ishin tark etib, bad ish izlasa,  
Do'st bo'lib, do'stidan sirin gizlasa,  
Allohnı unutib, yolg'on so'zlasa,  
Undan jim o'ltirgan behad yaxshidir.

Qodir Egam – jismimizni bor etgan,  
Aqlsizdir, Haq ishiga or etgan,  
Bemahal qurilgan buzuq ko'prikdan  
Jahannam ustida sirot yaxshidir.

Besh vaqt namoz o'qi, musulmon bo'lsang,  
Bilib, oxirating g'amini qilsang,  
Joning borligida xayr qozonsang,  
Rohat yotar yering – lahad yaxshidir.

Soʻz maʼnosin chiqar bir yaxshi joydan,  
Bexabarlar ayro tushar Xudoydan,  
Besh vaqt namoz qilmas bexabar boydan  
Yurtsiz, pirsiz loʻli-arvat yaxshidir.

Maxtumlari, koʻrding yaxshi-yomonni,  
Yolgʻonchining boʻlmas ontı-iymoni,  
Bir oq uyga borsang, olmas mehmonni,  
Har kimning oʻz eli – ummat yaxshidir.

### **KETIB BORADIR**

Dunyoga eʼtimod etmang, yoronlar,  
Kimga kelib, kimdan ketib boradir.  
Misoli Iskandar, shohlik surganlar,  
Bir-bir navbatında oʻtib boradir.

Birovni boy qilar, birovni gadoy,  
Ne qilsa, erki bor, ul qodir Xudoy,  
Birovning murodin berib, hoynahoy,  
Birov gʻam sharbatin yutib boradir.

Birovga beribdir qaygʻu-gʻam, mehnat,  
Umrida bir soat koʻrmadi rohat,  
Birovga etibdir nomardni ulfat,  
Uning umri “Oh!” deb oʻtib boradir.

Birovning boshida ko'pdir tumoni,  
Qayg'u-alam bilan chiqadir joni,  
Bir yaxshiga duch etibdir yomonni,  
Noiloj dunyodan o'tib boradir.

Kimlardir yig'laydi, maqsadin topmay,  
Nechalar oh urar, og'zini yopmay,  
Bir olg'ir bayroqni oladir, chopmay,  
Bir bedov kezolmay qaytib boradir.

Dunyo uchun chekma qayg'u, andisha,  
Sabr et balosiga, rozi kelmisha,  
Yig'labon, g'am bilan tolma hamisha,  
Ajal qo'li yoqang tutib boradir.

Maxtumquli aytar: barcha nasihat –  
Allohga qul bo'ling, Rasulga – ummat,  
Bilsangiz, dunyoning barchasi hasrat,  
Hasrat bilan bir-bir ketib boradir.

## ALLOH SEN

“Kun!” lafzidan olamni  
Mavjud etgan Allohsen!<sup>63</sup>  
Jabroilning qo‘linda  
Kavnni tutgan Allohsen!

Ojiz-u sharmandaga,  
Ko‘yingda darmondaga,  
Azroilni bandaga  
Nisbat etgan Allohsen!

Afv aylarga loyiq – Sen,  
Ham tabibi hoziq – Sen,  
Om va xosga Roziq – Sen,  
Qismat etgan Allohsen!

Zamoyirni<sup>64</sup> qo‘ndirib,  
Taxtni Arshga mindirib,  
Oshiq ko‘nglin yondirib,  
Hasrat etgan Allohsen!

---

<sup>63</sup> “Kun!” – “Bo‘l” demakdir. “Nahl” surasi, 40-oyat ma‘nosi: “Biz qachon biror narsani (ng bo‘lishini) xohlasak, so‘zimiz faqat “Bo‘l” demoqdir, bas, (u narsa) darhol bo‘lur” “A‘nom” surasi, 73-oyat ma‘nosi: “Osmonlarni va yerni haq (va hikmat bilan yaratgan Zot Udir. “Bo‘l!” degan kuni (har narsa shu onda mavjud) bo‘lur... Uning so‘zi haqdir”.

<sup>64</sup> Zamoyir – zamirlar, ko‘ngillar, dillar, ich olami.



Hijob tutib yuzingga,  
Isrofilni rozingga,  
Habibingni O'zingga  
Qurbat etgan<sup>65</sup> Allohsen!

Oshiq yo'linda murda,  
Uchramish Sensiz darda,  
Faqirlarga mahsharda  
Nusrat etgan Allohsen!

Maxtumquli – biym ora<sup>66</sup>,  
G'ulom bo'lmish bechora,  
Yuz ming mendayin zora  
Muruvvat etgan Allohsen!

## SOCHDI MUHAMMAD

Aval-dastlab borib Xaybar tog'inda  
Kofirlar qonini sochdi Muhammad.  
Laklahurda, Sakvon, Qobul shahrinda  
Jafo chekib, dinni ochdi Muhammad.

---

<sup>65</sup> Qurbat etgan – yaqin qilgan.

<sup>66</sup> Bim ora – qo'rquv ichra.

Oshuqlar bosh bo'lib, ishqqa minganda,  
Turga nazar tushib, tog'lar yonganda<sup>67</sup>,  
Buroq ko'kdan kelib, yerga inganda,  
Raf-raf minib, Arshga uchdi Muhammad.

Mikoil, Isrofil, Azroil bilan,  
Keldilar, turdilar Jabroil bilan,  
Sayr etdi Salsabil, Zanjabil bilan<sup>68</sup>,  
Kavsar anhoridan ichdi Muhammad!

Me'roj kechasida sayrga borganda,  
Yo Jabroil amin bilan yurganda,  
Bihisht eshiginda kelib turganda,  
"Bismilloh!" – deb eshik ochdi Muhammad!

Maxtumquli, o'zga dinni buzdilar,  
Iqlim-iqlim, shahar-shahar kezdilar,  
Jafo chekib, Islom dinin tuzdilar,  
Oltmish uch yoshinda kechdi Muhammad.

---

<sup>67</sup> "A'rof" surasi 143-oyatiga ishora; ma'nosi: "Muso Biz (ibodat uchun) belgilagan muddatda kelganida va Rabbi unga (hotifdan, ilohiy kalom ila) so'zlaganida (Muso munojot qilib): 'Yo Rabbim! Menga (O'zingni) ko'rsat, Senga qarayin' dedi. (Alloh): 'Sen toqat qilib, dunyo ko'zi bilan Meni ko'rursan', dedi. Rabbi (ning jamoli) u toqqa tajalliy etganida, uni chilparchin qilib yubordi va Muso behush bo'lib (yerga) yiqildi. Hushiga kelgach: 'Sen pok va munazzahsan! (Oliysan! Noo'rin so'rovim uchun) Senga tavba qildim va men imyon keltirganlarning avvaliman! – dedi'".

<sup>68</sup> "Inson" surasi, 17-19-oyatlariga ishorat; ma'nosi: U yerda aralashmasi zanjabil bo'lgan (to'la) qadahlarda (jannat sharobi) ichirilur. 18. (U zanjabil) u yerda bir chashmadirki, u Salsabil deb nomlanur. 19. (Jannat ahliga xizmat qilish uchun) atroflarida hamisha bir xil yoshda qoladigan, o'lim bilmas yoshlar aylanib tururki, ularni ko'rgach, bir-bir so'chilgan marvarid deb o'ylarsiz".

## UYLAR KO'RARSAN

Foniydan boqiyga bormoqchi bo'lsang,  
Tuynuksiz, eshiksiz uylar ko'rarsan.  
Namoz qilmay, beg'am yotmoqchi bo'lsang,  
Tamug' – do'zax otli joylar ko'rarsan!

O'zingga do'st bilma foniy dunyoni,  
Yolg'onchida qozonmagil gunohni,  
Bosh otib, ko'z yumib, qilma zinori,  
Qabr ichiga kirib, voylar ko'rarsan!

Namoz bilan besh ishingni joy etgil,  
Tuproq bilan o'z ko'nglingni to'yitgil,  
Muhammad zomindir<sup>69</sup>, shunda voy etgil –  
Ajdarho, mor otli mo'ylar<sup>70</sup> ko'rarsan!

Tark aylama hargiz besh vaqt namozing,  
Go'r ichinda o'ksik bo'lmas ovozing,  
Qishing ado bo'lub, tuganmas yozing,  
Obi Kavsar otli suylar ko'rarsan!

Ul ikki chashmangni ko'zingdan oqdir,  
Yo'ldoshing iymondir, Yaratgan Haqdir,  
Manzillar yiroqdir, yo'llar uzoqdir,  
So'nmas quyosh, botmas oylar ko'rarsan!

<sup>69</sup> Zomin – bironing kafilligini zimmasiga olish; kafil bo'lish; kafillik.

<sup>70</sup> Mo'ylar – yoldor mahluqlar.

Bir kun zoye' aylar osmon-zaminni,  
Daryolar tark etar suvda kemani,  
Yillar bayon etsak yetti tamug'ni<sup>71</sup>,  
Ichinda zakotsiz boylar ko'rarsan!

Sahar turib, tilda sanolar sana,  
Ochlarga non berib, muhtojga – dona,  
Rahiym yo'ldosh etsa seni iymona,  
Baxshishning ichinda to'ylar ko'rarsan!

Poklik bo'lsa qozoningda, oshingda,  
Farishtalar yuzlashurlar tashingda<sup>72</sup>,  
Huriy qizlar kelib turar qoshingda,  
La'l-u javohirdan shaylar ko'rarsan!

Banda Maxtumquli, chaqir Allohni,  
Azozil shaytonga berma pallani,  
Nasib etsa, jannat ichra hullani<sup>73</sup>,  
Minsang, buroq otli toylar ko'rarsan!

## XAROB AYLAR

Mo'min bo'lgan munkir bo'lmas so'zimga,  
Jabbor bu jahonni, ko'r, xarob aylar.  
Ko'p narsalar kelar-kechar ko'zimga,  
Bu dunyoni bad-bad kor xarob aylar.

<sup>71</sup> Tamug' – do'zax, jahannam, o't-olov.

<sup>72</sup> Tashingda – hovlingda.

<sup>73</sup> Hulli – bezakli nozik va nafis kiyim; nafis ipak mato.

Ishi rivoj topar bad ish rutganning,  
Tilagi duch kelmas Haq deb yotganning,  
Yerda hukmi o'tar kuchi yetganning,  
Jahonni zulm ila zo'r xarob aylar.

Olimlar ilmga yurmas, jat<sup>74</sup> bo'lar,  
Yo'q ishlar yo'l bo'lar, bor ish bad bo'lar,  
Shariat nest bo'lar, bad ish sad<sup>75</sup> bo'lar,  
O'lkani bir necha tavr xarob aylar.

Balxni bo'g'uz<sup>76</sup> dardi, Nishopurni – tosh,  
Ummon mulkin – dengiz, Basrani – otash,  
Madinani ochlik, Makkani – habash,  
Hirot, Qandahorni mor<sup>77</sup> xarob aylar.

Rum mulkin aylabon so'iq<sup>78</sup> xarob,  
Yamanni xuloch<sup>79</sup> yiqar, Mavsilni – a'rob,  
Kufani –do'l-jala, Bag'dod shahrin – ob,  
Ray yurtin yorilib yer xarob aylar.

So'zimga quloq ber, oqil, hamisha,  
Termizga to'un<sup>80</sup> tushar, ranj<sup>81</sup> – shahri Kesha,

<sup>74</sup> Jat – Hindistonda yashovchi bir xalq; majozan hayvon o'ynatuvchi. Bu o'rinda olimlarning ilmga ergashmay, fosiq va fojir bo'lib ketishi ko'zda tutilgan.

<sup>75</sup> Sad bo'lar – yuz bo'lar, ya'ni yomon ish yuz bor ko'payar.

<sup>76</sup> Bo'g'uz – tomoq, kekirdak, halqum.

<sup>77</sup> Mor – ilon.

<sup>78</sup> So'iq – bulutdan yerga tushadigan chaqmoq, yashin, barq.

<sup>79</sup> Xuloch – qizamiq, bu o'rinda bezgak.

<sup>80</sup> To'un – o'lat, vabo.

<sup>81</sup> Ranj – qiyinchilik, og'riq, kasallik.

Avlodi Sufyonda – oti Kumisha –  
Isfahonni sohib kor xarob aylar.

Samarqandni qibtiy yig'ilar, bek<sup>82</sup> bosar,  
Buxoroni non qahati, turk bosar,  
Saraxsni marg buzar, Marvni reg<sup>83</sup> bosar,  
Sherozni turk, g'ujg'on mor xarob aylar.

Qoshg'arni, Xo'tanni kofir hind egar,  
Xitoyga osmondan kajdumlar<sup>84</sup> yog'ar,  
Har kajdum tevadek bir-birga tegar,  
Hindistonni oh-u zor xarob aylar.

Adan shohin yetar Loxurga azmi,  
Qaytib yurtin topmas – tog'mi, yo tuzmi,  
Obi Jayhun xarob aylar Xorazmni,  
Atrofda har mulkkim bor – xarob aylar.

Darg'onning shahriga ko'kdan sas kelar,  
U bir yovuz sasdir, eshitgan o'lar,  
Bulg'orning mulkini ul o'rus olar,  
O'rusni Dajjol-u nor<sup>85</sup> xarob aylar.

---

<sup>82</sup> Bek – ko'p, juda, behad.

<sup>83</sup> Reg – qum.

<sup>84</sup> Kajdumlar – chayonlar.

<sup>85</sup> Nor – olov, yong'in.

Maxtumdquli, har kim tinglasa jondan,  
Bu ishlar o'ng kelar oxirzamondan,  
Mahdiy yerdan chiqar, lyso – osmondan,  
Dajjolni ul ikki er xarob aylar!

## YO RASUL!

Bul mening jonim sening yo'lingda qurbon, yo Rasul!  
Har nekim qilsang jafo, bu jonga darmon, yo Rasul!  
Suyubon bor aylamishdir seni Rahmon, yo Rasul!  
Qullug'ingga muntazirdir, bu jahon har on, yo Rasul!

Ul azobun-noridan bo'lmish sening yo'ling yiroq,  
O'zingga bermish Xudo Firdavsi a'lo ham Buroq,  
Senki kelding dunyoga, bas, yondi olamda chiroq,  
Shukrilillohkim, jahon bo'ldi nurafshon, yo Rasul!

Dard ila bu yuragim har lahza oh qildi necha,  
Ohimning darmoni avval – Abdulloh, Vasal-Xoja,  
Har zamon mohi jamoling tushima kirmas kecha,  
Bas, qolar to munchalar jonimda armon, yo Rasul!

Yig'layubon men zor-u zor, istagaydirman seni,  
Bu zalillik hamda xorlik ichra ko'p qo'yma meni,  
Ham yana mezon qurilib, bo'lsa mahsharning kuni,  
Ko'p inonchim, sen turarsan, ullu devon, yo Rasul!

Oshiqa "Huv-Huv" debon bo'lgusi ma'rifat guli,  
Bu zalil bechoraning balki yetar senga qo'li,  
Oh-u afg'oning seningkim, yod etib Maxtumquli,  
G'am ichinda bo'yla bir bemor-u hayron, yo Rasul!

## TURSA KERAQDIR

Qardoshlar, kun-kundan badtar bo'libdir,  
Yil-yildan bid'atlar kelsa kerakdir.  
Xamr ichgan-u zino qilgan jahonda  
Ma'lum, mashhur bo'lib tursa kerakdir.

Musulmon qardoshlar, qaytmang bu yo'ldan,  
Kecharsiz Sirotdan, injadir qildan,  
Dajjol kelar derlar bir necha yildan,  
Olamga bir g'avg'o solsa kerakdir.

Ko'zi birdir, qaro kiymish qadina,  
Sho'rlik yonar haromining o'tina,  
Shomi sharif, Rumo, Makka, Madina  
Musulmonlar qochib, to'lsa kerakdir.

Iyso, Mahdiy kelsa, adldir, doddir,  
Ya'juj-Ma'juj kelsa, zulm, hayhotdir,  
Qulog'i yer sudrar, bir yovuz zotdir,  
Qof tog'ini teshib, kelsa kerakdir.



Qalam titrar yetimlarning zorindan,  
To'liqin kechar oshiqlarning sarindan,  
Ko'k o'prilib, tog'lar jular yerindan,  
Isrofil surini chalsa kerakdir.

Daryolar quriydi, suvlar chekilar,  
Oy, kun ham tutilar, yulduz to'kilar,  
Buyuk tog'lar erib, yer, ko'k yiqilar<sup>86</sup>,  
Yolg'iz Mavlom O'zi qolsa kerakdir<sup>87</sup>.

Ajal kelsa, banda xonu monidan,  
Qo'l tortar, yil, kundan, shirin jonidan,  
Allohning amridan, Haq farmonidan  
Azroil o'z jonin olsa kerakdir.

Haqdan g'ayri jon-u jondor qolinmas,  
Isrofil jon bergach, sur ham chalinmas,

<sup>86</sup> "Takvir" surasining 1–14-oyatlari mazmunidan; ma'nosi: Bismillahir-Rohmanir-Rohimn. "1. Quyosh o'ral (ib nuri so'ndiril)ganida, 2. Yulduzlar to'kilganida, 3. Tog'lar yurgizil (ib yo'q bo'lganida), 4. O'n (n) bo'g'oz ruyalar (dahshatdan) qarovsiz qo'yib yubonilganida, 5. Vahshiy hayvonlar (har yonda hurkib) to'planganida, 6. Dengizlar qaynatil (ib olov kesil)ganida, 7. Nafslar (jonlar) juftlanganida (ruhlar jasad bilan birlashganida yoki kushilar o'z jamoasi bilan sinf-sinf jamlanganida), 8.9. Timklay tuproqqa ko'milgan qaysi gunohi sababli o'ldiridir – deb so'ralganida, 10. (Amallar bitilgan) daftarlar ochilib tarqatilganida, 11. Osmon (o'midan) udinil (ib o'rab yig'ishtiril)ganida, 12. Jahannam yanada lovvlatib qizdirilganida, 13. Jannat (mo'munlarga) yaqinlashtirilganida, 14. (Har bir) nafs (shunda yaxshilik va yomonlikdan) nima hozirlaganini bilgaydir". Yana "Mursalat" surasining 8–11-oyatlariga ishora, ma'nosi: "Bas, vaqtiki yulduzlar (nun) o'chirilganida, osmon yonilganida, tog'lar (o'midan) ko'chinilib, sovunilganida, payg'ambarlar (urumatlarga) guvohlik berish uchun) muayyan vaqtda bir joyga jamlanganida, (bas, shunda qiyomat qo'pgandir)."

<sup>87</sup> "Qasf" surasi, 88-oyatiga ishora: "U (Alloh)ning zotidan boshqa hamma narsa halok bo'lguvchidir. Hukm Uningdir va sizlar faqat Uningni qaytarilgaysizlar".

Qirq kun yomg'ir yog'ar, yer, ko'k bilinmas,  
Xalq qayta tirilib kelsa kerakdir.

Bir Buroqni hulla bilan bezarlar,  
Oltin-kumush, qizil-yashil tuzarlar,  
To'rt farishta taftish etib kezarlar,  
Muhammad qabriga kelsa kerakdir.

Sado chiqar farishtaning parindan,  
“Labbayk!” – deya turib kelar yerindan,  
Qabr ochilib, qum to'kilar sarindan,  
“Voy ummatim!” – deya tursa kerakdir.

Ko'ngul qayg'u chekar mahshar g'amindan,  
“Qani ummatim?” – deb so'rar Amindan<sup>88</sup>,  
Sajdaga bosh qo'yib, turmas zamindan,  
“Turl!” – deb Haqdan ilhom bo'lsa kerakdir.

Isrofil surini olar qo'liga,  
Ko'zin tikar qodir Alloh yo'liga,  
Chiqar, sado berar sog'u so'liga,  
Jumla jonzod jonga kelsa kerakdir.

Aksirib-aksirib go'rdan chiqarlar,  
Turarlar, osmonga ko'zni tikarlar,

---

<sup>88</sup> Amin – bu o'rinda farishta hazrati Jabroil alayhissalom.

Qo'rquv bosib, tegra-toshga boqarlar,  
Qirq kun hayron bo'lib tursa kerakdir.

Ko'rarlar, qurt-qushlar qochmas yonidan,  
Daryolar qizdirib kelmish shonidan,  
Har kimsa o'z sevganining yonidan  
Birga hamdam bo'lib qo'psa kerakdir.

Zaboniy malaklar<sup>89</sup> gurzini tutmish,  
Tarozu qurilmish, kun nuri ketmish,  
Har kimki dunyoda to'n ehson etmish,  
To'ni hulla bo'lib kelsa kerakdir.

Buyuk devon qurilar<sup>90</sup>, bir ish tuzilgay,  
Quyosh yuzin burar – olam qizilgay,  
Miyang “chig'ir-chig'ir” qaynab sizilar,  
Bergan noning soya solsa kerakdir.

---

<sup>89</sup> Zaboniy malaklar – azob farishtalari. Qur'onu karimning “Alaq surasi”, 17–18-oyatlariga ishora, ma'nosi: “Bas, u (o'ziga yordam beradigan) toifasini (qarindosh-urug', yor-do'stlarini) chaqirsin. Biz esa zaboniyalarni (azob farishtalarini) chaqirurmiz”. Yana “Tahrim” surasi, 6-oyatining ma'nosi: “Ey imon keltirganlar! O'zlaringizni va oilangiz ahllarini yoqilg'isi insonlardan va (yonuvchi) toshlardan bo'lgan do'zaxdan saqlanglar. Uning boshida (vazifador) ulkan jasadli, qo'pol tabiatli, Alloh o'zlariga buyurgan narsalarga sarkashlik qilmaydigan va amr etilgan narsalarni bajaradigan (o'n to'qqiz nafar zaboniy) farishtalar bordir”.

<sup>90</sup> Bu buyuk devon qiyomat kunidan o'rnatiladigan mahkamavi kubrodir.

Fir'avn, Homon, Shaddod, necha kofirlar,  
“O'lgandik!” – deb hayron bo'lib shoshurlar,  
“Bizni kim tirgizdi?” – deya so'rarlar,<sup>91</sup>  
Mo'min qullar javob bersa kerakdir.

Shodliklari qayg'u bilan daf bo'lar,  
O't yoqilar, g'avg'olari ko'p bo'lar,  
Oxiratda yuz yigirma saf bo'lar,  
O'n ikki saf qilib sursa kerakdir.

Bir guruhi xinzir<sup>92</sup> bo'lib kezarlar,  
Bir guruhi maymun bo'lib ozarlar,  
Bir guruhi ko'r, kar bo'lib kezarlar,  
Qilmishi oldiga kelsa kerakdir.

Birovning tanida o't-yolqin o'ynar,  
Birovning og'zida qon, yiring qaynar,  
Amalsiz mullalar tillarin chaynar,  
Uni Rabbim shunday qilsa kerakdir.

Birov o't qamchidan qiynalib o'tar,  
Birovi mast bo'lib yiqilib yotar,

<sup>91</sup> “Yosin” surasi, 51-52-oyatlariga ishora, ma'nosi: “(Nihoyat, ikkinchi bor) sur chalindi. Birdan (qarabsizki), ular qabrlaridan (turib) Rabbilari sari yugurib keturlar. Derlar: “E voy, bizning holimizga! Kim bizni yotgan joyimizdan turg'izdi?! Bas, Rahmon va'da qilgan narsa va payg'ambarlar rost so'zlagan (kun) mana shudir!” Yana “Isro” surasi, 51-oyatining ma'nosi: “Ular yana: “Bizni kim (u yerda) qayta tirilturur?” – derlar. Aytimg: “Sizlarni ilk marta yaratgan Zot (qayta tirilturur)!”

<sup>92</sup> Xinzir – to'ng'iz, cho'chqa.

Birovning oyog'i boshida bitar,  
Boshi bilan yurib kelsa kerakdir.

O'n qat olov to'shak tushar o'rniga,  
Navhagarning boshi tushar burniga,  
Tili ham cho'zilib, tushar qorniga,  
Amalga bog'lanib kelsa kerakdir<sup>93</sup>.

Mo'min shodon bo'lar, kofir ich ezar,  
Nor, bug'ro sifatli ilonlar kezar,  
Xaloyiq yig'ilar, farmonda yaksar,  
Muhammad tug'inu qursa kerakdir<sup>94</sup>.

Qo'rquv tushar payg'ambarlar joniga,  
O'g'il kelmas otasining yoniga,  
Muhammad eng boshda – mezon tubiga  
Yashil alam<sup>95</sup> qurib tursa kerakdir.

Quchgaydir “O'g'lim!” – deb Odam payg'ambar,  
Ibrohim Xalil der: “Ayo Birubor!”,  
Muso, Iyso aytar: “Yaratgan Jabbor!”,  
Har kim o'zin tilab olsa kerakdir.

<sup>93</sup> “Amalga bog'lanib kelsa kerakdir” – “Muddassir” surasi, 38-oyatiga ishora, ma'nosi: “Har bir nafs o'z qilmishiga bog'langan (o'z amalining garov-tutquni)dir”.

<sup>94</sup> Bu tug' – lavohul-hamd, ya'ni hamd bayrog'idir.

<sup>95</sup> A'lam – bayroq, tug'.

Necha payg‘ambarlar duosi maqbul,  
Ne sog‘ini tanir, ne so‘lini ul,  
Yoshin sochib yig‘lar Muhammad Rasul,  
“Voy ummatim!”, – debon tursa kerakdir.

Xaloyiq tiyolmas ko‘zda yoshini,  
Tanishar, so‘rashmas qavm-xeshini,  
Maydonda qurilgan Mezon boshini  
Isrofil tutubon tursa kerakdir.

Kofirni bezarlar otash to‘niga,  
Surarlar, eltarlar do‘zax yoniga,  
Juganli<sup>96</sup> xachirdek bo‘lib shoniga,  
Bug‘ro<sup>97</sup> kabi mo‘ylar suqsa kerakdir.

“Shafqat!” – deb dod etar, yetmaydi ohi,  
Eshakdek, to‘ldirar yerni hangrog‘i,  
Yegani zahardir, ichgani og‘u,  
Abadiy zindonda qolsa kerakdir.

Endi keldik, mo‘min qullar netarmish,  
Qaysi ishga, qaysi yo‘lga ketarmish? –  
Muhammad hurmati, oqlov etarmish,  
Bilmaganlar buni bilsa kerakdir.

<sup>96</sup> Asl nusxada kelgan “polon” (polonli) so‘zi – “eshakning ustiga yopiladigan to‘qim” ma‘nosidadir. Bu o‘rinda juganli, jilovli, no‘xtali, tuzginli degan ma‘nolari ham borligi anglashilmoqda.

<sup>97</sup> Bug‘ro – ikki o‘rkachli tuya.

Mo'minlar Sirotidan o'tarlar yo'ldak,  
Kimklari chaqmoqdek, kimklari yeldek,  
Kimi uchqur otdek, kimklari seldek,  
Kimi uchar qushdek kechsa kerakdir.

Uch ming yillik yo'ldir, mingi chiqishdan,  
Bir mingi tekisdir<sup>98</sup>, mingi inishdan,  
Qarodir kechadan, o'tkir qilichdan,  
Kim kecha-kunduzda kechsa kerakdir.

Kim o'tar o'n kunda, kimi bir oyda,  
Kimi qulon<sup>99</sup> yanglig' dodlar saroyda,  
Kim bir yilda kechar, kimi qirq oyda,  
So'ngi besh ming yilda o'tsa kerakdir.

Shuncha ming yil qonlar yig'lab kechgan so'ng,  
Sirot ko'prigidan omon o'tgan so'ng,  
Kavsar soqiysidan sharob ichgan so'ng,  
Yosh-qari teng yoshga kelsa kerakdir.

Yigitlar yashil toj qo'yar boshida,  
Yusuf jamolida, Iyso yoshida,<sup>100</sup>

<sup>98</sup> Asl nusxadagi forscha "hamvor" so'zi o'rniga uning tarjimai bo'lmish "tekis" so'zini tanladik.

<sup>99</sup> Qulon – yovvuyi eshak, forscha nomi – "go'r" yoki "go'rxar".

<sup>100</sup> Iyso alayhissalom o'ttiz uch yoshda dunyodan yuqoriga ko'tarilganlar, bu o'rinda hamma yoshartirilib, o'ttiz uch yosh atrofida jannatga kiritilishi haqidagi iltimozlarga ishora qilinmoqda.

Dovudning o'rnida – o'ttiz beshida,  
Har kim o'z sevganin olsa kerakdir.<sup>101</sup>

Yetmish hulla kiyib, taxtga qo'narlar,  
Zabarjad bezakli Buroq minarlar,  
Yeyarlar, icharlar, sayron qilarlar,  
Hech o'lmas – jovidon qolsa kerakdir.

Yetmish hur qiz to'shak to'shar ostiga,  
Yetmish hur qo'l bog'lab turar qasdiga,  
Tubo daraxt soya solar ustiga,  
Haqning jamolinu ko'rsa kerakdir.

“Dunyo – shu dunyo” deb yotgan sarkashlar,  
Ishonmagan kofir bo'lar, qardoshlar,  
Maxtumorquli aytar: kelar bu ishlar,  
Qiyomat kun qullar ko'rsa kerakdir.

## VAFOT BOR

So'filar, sofiylar, hazir bo'linglar,  
Ajali bor-u, hayoti bor-u, vafoti bor.  
Yomon ishdan hamma nofir<sup>102</sup> bo'linglar,  
So'rog' bor-u, savoli bor-u, hayoti bor.

---

<sup>101</sup> “Oxiratda har kim sevgan kishisi bilan birga bo'ladi”, degan hadisi sharifga ishora.

<sup>102</sup> Nofir – nafratlanuvchi, qochuvchi, uzoqlashuvchi.



Munkar, Nakir tor go‘r ichra kelarlar,  
“Rabbing, Payg‘ambaring kim?” – deb so‘rarlar,  
Bilmas ersang, ko‘p azoblar berarlar,  
Gurzi bor-u, qahr bor-u, haybat bor.

Ul qorong‘u go‘r ichinda yotarsen,  
Bechorasen, Haq buyrug‘in tutarsen,  
Isrofil surida yerdan chiqarsen,  
Mahshar bor-u, mezon bor-u, sirot bor.

Anda mezon tarozusin qurarlar,<sup>103</sup>  
A‘mollaring o‘shal yerda so‘rarlar,  
Osiylarni do‘zax sari surarlar,  
Malik bor-u, do‘zax bor-u, ham o‘t bor.

Maxtumquli, ko‘zing aylagil giryon,  
Ul kun haybatidan Haq qilgay oson,  
Bo‘lsa oxir damda hamrohi iymon,  
Jannat bor-u, ne‘mat bor-u, najot bor.

---

<sup>103</sup> “Anbiyo” surasi, 47-oyatiga ishora, ma‘nosi: “Biz qiyomat kuni uchun adolat tarozularini o‘rnaturmiz, bas, (shu sababli) hech kimga hech bir shaklda haqsizlik qilinmas. (Qilingan ish) bir xardal doni og‘irligicha bo‘lsa ham, Biz uni kelturmiz. Hisob olguvchi o‘laroq Biz kifoya qilurmiz”. Yana “Mo‘minun” surasi, 102–103-oyatlari ma‘nosi: “Bas, kimlarning (savobda) mezonlari og‘ir kelsa, ana o‘shalar najot topguvchilarning xuddi o‘zlaridir. Kimlarning mezonlari yengil kelsa, ana o‘shalar o‘z-o‘zlariga ziyon qilguvchilardan bo‘lib, ular jahannamda abadiy qolurlar”.

## ALIDUR

Zarb uribon Janodilning shahriga,  
Kofirlarga g'azab solgan Alidur.  
Ko'z yumib ochguncha qirq kunlik yo'lni  
Duldulga bir farsax qilgan Alidur.

Boshlar ozod etgan dev quchog'idan,  
Ajdarho labidan, tog' puchmog'idan,  
Darvozasin yulqib, Xaybar tog'idan,  
Birdan yetti qal'a olgan Alidur.

Gasht aylagan tog'-u toshni kezibon,  
Xanjar, qilich sermab, qonlar kechibon,  
To'g'ri kelib Axtam<sup>104</sup> o'chin olibon,  
Muqotilga g'avg'o solgan Alidur.

Arslon kabi quvding kofir yovlarni,  
Ozod etding necha Ka'baravlarni,  
Yer ostidan yurtlar buzgan devlarni,  
Borib, bo'lak-bo'lak qilgan Alidur!

Kalla<sup>105</sup> keldi dargohingga dod bilan,  
Nizom berding sarhadlarga xat bilan,

---

<sup>104</sup> Axtam – hazrati Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning tang-  
da qatl etilgan sahobalaridan birining nomi (laqabi).

<sup>105</sup> Bu o'rinda "Chaqir kalla" haqidagi naql nazarda tutilgan.

Qam-qam<sup>106</sup> qilich bilan, Duldul ot bilan  
Tahtash-shajargacha<sup>107</sup> borgan Alidur.

Maxtumquli aytar: tanda bu joning,  
Yo'lida nisordur Shohi mardonning,  
Qo'l uzatib, to'rt kunjini jahonning  
Muhammad diniga solgan Alidur!

## OMON, HEY!

Hadisdan, roviydan bir so'z aytoyin,  
Hayhot<sup>108</sup> kundan, zulmat kundan, omon, hey!  
Tangri qullariga oshkor etoyin,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

O'ttiz ikki ming yildan bir zot kelar,  
Oti Dajjol, o'zi kofir, ko'r bo'lar,  
O'ngidan, so'lidan to'rtta tog' yurar,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

---

<sup>106</sup> Qam – 1) to'polonni, isyonni bostirish, o'zni o'chirish; 2) tobe qilish, bo'vsundirish; 3) sindirish.

<sup>107</sup> Tahtash-shajar – daraxt tagi degan ma'noda bo'lib, Qur'onu karimning "Fath" surasi, 18-oyatida kelgan iboradir; oyat ma'nosi: "(Ey Rasulim!) Muhaqqaq, (Hudaybiyyada) daraxt tagida bay'at qilgan vaqtlarida Alloh u mo'minlardan rozi bo'ldi". Bu misraning "Tah-tas-saro" degan nusxasi ham mavjud bo'lib, islomiy e'tiqod jihatidan "Tahtash-shajar" ("Daraxt tagida") iborasi hazrati Ali rozivallohu anhu maqomlariga muvofiqdir.

<sup>108</sup> Hayhot kuni – qiyomat kuni. Maxtumquli ko'p o'rinda qiyomat kunini shunday nomlar bilan ataydi.

“Xudoman” deb etar da’vo-taloshni,  
Mahdiy uning birla etar savashni,  
To’rt shaharga qochar islom qardoshi,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

Zanglar<sup>109</sup> osar markabining bo‘yniga,  
Musulmonlar yurmas aning o‘yiniga,  
Kofirlar haq bilib kirar diniga,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

Dajjol halqa ular, Ka’ba evrilar,  
Bulutlar ko‘pirib, to‘fonlar turar,  
“Toyron Abobil” dan<sup>110</sup> kofir qirilar,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

Iyso – sohibzamon kelar shul onda,  
Adl o‘rnatib, vazir bo‘lar ul kunda,  
Tutarlar Dajjolni, o‘ldirar shunda,  
Hayhot kundan, zulmat kundan omon, hey!

Uch bor hanragudek xar Dajjol dodi,  
Quvib yeta olmas Mahdiyning oti,  
Ul vaqt sidirilar Qur’onning xati,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

<sup>109</sup> Zang – qo‘ng‘iroq.

<sup>110</sup> “Toyron-abobil” – “Fil” surasida kelgan ibora, Ka’bani buzishga kelgan fil egalarni to‘da-to‘da holdagi qushlar sopol tishlarni yog‘dini halok qilganligi haqidagi voqeaga ishora.

Ul sasni eshitib Ya'juz qirg' yildan,  
Qof tog'ini teshib, kelar bir yerdan,  
Har neni yo'q etar dunyoda birdan,  
Hayhot kundan, zulmat kundan, omon, hey!

Maxtumquli aytar so'zning porasin,  
Haqdan o'zga hech kim bilmas chorasin,  
Ya'juz so'ngra ko'rar mahshar g'avg'osin,  
Hayhot kundan, zulmat kundan omon, hey!

## ANDADUR

Ey yoronlar, g'ofil bo'lmang, joni jonlar andadur,  
Og'u-zahar, shahd-u shakar, turfa bollar andadur,  
Ul yomon mahshar – musallat, qol-maqollar andadur,  
Ul yomon oh-u nadomat, qiyl-u qollar andadur,  
Turfa beklar, turfa xonlar, turfa ellar andadur.

Har kishi zulm aylasa, Haq do'zaxin o'tin sochar,  
Har kimgaki lutf aylasa, jurm-u gunohin Ul kechar,  
Pulsirotdan osiy qullar bir qadam yo'ldan kechar,  
Kimi besh yil, kimi o'n yil, kimi yuz yildan kechar,  
Ulug' tog'lar, uzoq yo'llar, suvsiz cho'llar andadur.

Har kim o'z holiga yig'lar, ota ne o'g'liga boqar,  
Pishqirib ham titarabon qahr-u g'azab birlan saqar<sup>111</sup>,

<sup>111</sup> Do'zax, jahannam.

Ko'p ilonlar tashlanib, bug'ro sifat mo'ylar suqar,  
Ro'za tutmas bandalarni Haq jahannamda yoqar,  
Surati xinzirsifat<sup>112</sup> naqshi bad onlar andadur.

Tong-la ul tavfiqli qullar murshidiga daldadir,  
Har kishi ehson etar, ehsoni endi olddadir,  
Kimi shodda, kimi o'tda, har kishi bir holdadir,  
Mol-u dunyo foyda bermas, bozigardir – aldatur,  
Ul egarlangan Buroqlar, hulla to'nlar andadur.

Ro'siyo Maxtumquli, soqi ajal ichsang kerak,  
Xonu moning, mol-u mulking – baridan kechsang kerak,  
Necha g'iybat, necha yolg'on so'zlari ichsang kerak,  
Toyinib, qil ko'pndan bir zoviya<sup>113</sup> uchsang kerak,  
Ul qilichdan tig'li, qildan inja yo'llar andadur.

---

<sup>112</sup> Xinzir – to'ng'iz, cho'chqa.

<sup>113</sup> Burchak, burch, chekinish joyi.

## BIR BAYON KELAR

Dabbatul-arz<sup>114</sup> o'tli dajjol so'ngidan  
Marvadan, Safodan<sup>115</sup> bir bayon kelar.  
Yetti kun o'tganda uning jangidan,  
Uch kunda olamga bu nishon kelar.

Yuzi odam, kundek manglayin oqi,  
Misli devga o'xshar qo'li, oyog'i,  
Zo'r damli, qush tanli, qalqon qulog'i,  
Boshining ustida to'rt qaron<sup>116</sup> kelar.

Oz qoladi shoxi ko'kka yetmoqqa,  
Bir haftacha fursat topar yotmoqqa,

<sup>114</sup> Dabbatul-arz – yer hayvoni, islom e'tiqodiga ko'ra, qiyomat yaqinlashganda yerdan chiqishi haq bo'lgan hayvon. Bu haqda Qur'on karimning "Naml" surasi, 82-oyatida aytiladi; ma'nosi: "(Qiyomat qovim bo'lishi haqidagi) so'z ularning boshiga kelgan vaqtda Biz ular uchun yerdan bir hayvon (ajib va g'aroyib bir maxluq) chiqarurmizki, u insonlarning oyatlarimizga qat'iy ishonmaganliklarini avtib ularga gapitur. (Bas, shunda tavba eshigi yopilur, haqiqiy mo'minlar bilan iymonsizlar ma'lum bo'lur.)" 140 "Ruhul-hayon" tafsirida aytilishicha, yer hayvoni chiqishidan oldin Safo tepaligining Marvaga qaytadigan qismi bir necha kun tirab-qimirlab turadi, kevin u yer yoritilib, ichidan dabbatul-arz chiqadi. Maxtumquli shunga ishora qilmoqda.

<sup>115</sup> Faqih Abul-Lays Samarqandiy "Tafsiyrul-Qur'on"da aytadilar: "Va'da qilingan azob vaqti kofirlarning boshiga kelgan vaqtda yerdan bir Dabba (jonivor) chiqadiki, insonlar Allohning oyatlariga qat'iy holda ishonmaganliklarini avtib, gapiradi. Bu qiyomat alomatlaridan bitasidir... Kofirlar bu hayvonni ko'zlari bilan ko'rmaganlaricha Allohning oyatlariga ishonmaydilar, faqat o'sha vaqtda ishonadilar. Ammo Dabbaning chiqishi tavba eshigining yopilajagiga dalolat qilganidan, shundan keyin qilingan tavbalar Alloh huzurida qabul bo'lmaydi" (4-jild, 431-sahifa).

<sup>116</sup> Qaron (asli arabcha qarn) – hayvon shoxi.

Jahon yig'ilib, tomoshosin etmoqqa  
Yaxshi-yomon – barcha musulmon kelar.

Qochib undan hech kim topmas xalosi,  
Mo'minlar xushlanar, havl etar<sup>117</sup> osiy,  
O'ng qo'lida bo'lar Muso asosi,  
Chap qo'lida muhri Sulaymon kelar.<sup>118</sup>

Nechasiga muhri Sulaymon urar,  
Nechasiga Muso asosin surar,  
Xalq yarmi oq, yarmi qop-qora bo'lar,  
Qora yuzli ma'lum, beimon kelar.

Xor qolmas olganlar bilgandan bilik<sup>119</sup>,  
Do'stni dushman qilur, bo'lsa badqiliq,  
Oq – jannatiy derlar, qora – do'zaxlik,  
Dunyoning so'ngidan shu zamon kelar.

Dabbadan sas tinglang, oshiqning so'zin,  
Bilib bo'lmas Kun, Oy, kecha yulduzin,

<sup>117</sup> Havl etmoq – qo'rqmoq, dahshatga tushmoq.

<sup>118</sup> Imom Termiziyning "Al-jomi' as-sahih" ("Sunani Termiziy") kitobida ushbu hadisi sharif keltiriladi; Hazrati Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi; Hazrati Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Dabbatul-arz (yer hayvoni) o'zi bilan birga Sulaymon (alayhissalom)ning uzugi (muhri) va Muso (alayhissalom)ning asosi bo'lgan holda chiqadi, (aso bilan) mo'minning yuzini nurlantiradi, muhr bilan kofirning burnisini muhrlaydi. Nihoyat, bir ziyofatda o'tirganlar jamlanadilar va bu: "Ey mo'min!", va bu: "Ey kofir!" deb (bir-biriga) xitob qiladilar. Maxtumlul ana shu haqiqatga ishora qilmoqda.

<sup>119</sup> Bilimli, olim kishidan ilm olganlar u kunda xor bo'lib qolmaydi.



Qirq kun qora tutun olamning yuzin –  
Yeru ko'kni bosib, bo'z tuman<sup>120</sup> kelar.

Jonivor yo'q bo'lar, xalq undan tinar,  
O'g'il-qiz oz turar, xalq shashti sinar,  
Odamday o'n malak osmondan inar,  
Yig'lashib, har yerdan yuz fig'on kelar.

Muxtumquli yurar qalam so'ziga,  
Yeru ko'k tutashar tog'lar tuziga,  
Isrofil sur chalar yerning yuziga,  
Umidsiz xok tanga toza jon kelar.

## O'ZI BIHISHTNING

Ko'kdan yuqondir, Arshdan pastdadir,  
Ey yoronlar, o'rni – o'zi bihishtning.  
Hazor ming nag'masi, yuz ming maqomi,  
Doim tuzilgandir sozi bihishtning.

Xizir yoshin nasib qilsa kezmoqqa,  
Dovud kotibligin bersa yozmoqqa,  
Kecha-kunduz bo'lsam sharhin tuzmoqqa,  
Mingdan bir aytilmas so'zi bihishtning.

---

<sup>120</sup> Bo'z tuman – kulrangga moyil, oq, ko'k-oqish tuman.

Darvish tushda ko'rib, bo'lmish oshig'i,  
Qizil oltindandir – farshi<sup>121</sup>, eshigi,  
Olamni g'arq aylar nurdan – ishig'i,  
Agar bir ochilsa yuzi bihishtning.

Kalom ichra o'qib, aytar mullalar,  
Xizmatchi rizvonlar, oncha zumralar,  
Murassa<sup>122</sup> halqalar, nozik hullalar,  
Tuganmas ne'mati-nozi bihishtning.

Sharhini aytmoqqa so'zim, tilim yo'q,  
Haq O'zi hakimdir, jabr, zulm yo'q,  
Qayg'u-g'am yo'q, qarilik yo'q, o'lim yo'q,  
Ayrilmas, tuganmas yozi bihishtning.

Yuz sharbatdan ma'jum bo'lib qotilgan,  
Qora sochlar oq to'piqda chatilgan,  
Bir xil yoshda, tengqur,<sup>123</sup> yangi yetilgan,  
Nozlanar, sollanar qizi bihishtning.

Minib sayron uchun Buroq otlari,  
Kundan-kunga ortar ko'ngul shodlari,

<sup>121</sup> Farshi – yeri, to'shami.

<sup>122</sup> Murassa – qimmatli toshlar bilan bezalgan.

<sup>123</sup> Bu satrda Maxtumduli "Naba" surasida taqvo sohiblari uchun bildirilgan xushxabarlarga ishora qiladi, shuning uchun ma'nosini ifodalashga urindik. "Naba" surasi, 31-34-oyatlari ma'nosi: "Albatta, taqvo sohiblari uchun esa (har qanday qo'rquv va qayg'udan) qutulish (va jannatda) bog'lar va uzumzorlar, yana ko'kslari kamolga yetgan, bir xil yoshdagi dilbarlar va to'la-to'la qadah(lar bordir)".

La'l-u yoqutdandir barcha zotlari,  
Hech bo'lmagay gardi-tuzi bihishtning.

Pishgay alvon<sup>124</sup> qo'l tegmayin oshlari,  
Qudrat bilan biryon bo'lur go'shtlari,  
Dunyoga teng kelar dirham toshlari,  
Ortiqdir har yetgan chizi<sup>125</sup> bihishtning.

Har navbat ming turli sharob ichilgan,  
Olmos, inju, yoqut, durlar sochilgan,  
Rang-barang, behisob gullar ochilgan,  
Mushki anbar sochar isi bihishtning.

Haq qabul aylabon do'stin, ag'yorin,  
Hosil aylab har ne maqsadin borin,  
Ko'rsatib ul kunda xalqqa diydorin,  
Budir mo'minlarga rozi bihishtning.

Maxtumquli, vasfi kelmas tillarga,  
Tilga kelsa, bayon etsam ellarga,  
O'jiz bandalarga, osiy qullarga,  
Yo Rab, O'zing ayla ro'zi bihishting!

---

<sup>124</sup> Alvon — xilma-xil.

<sup>125</sup> Chizi — narsasi, ne'mati.

## QILGIL NAMOZNI

Odam o'g'li, sening yuraging tordir,  
Aylanib, o'rgilib, qilgil namozni.  
Bu dunyo bir quruq xasdir-u xordir,  
Aylanib, o'rgilib qilgil namozni.

Namozing o'qigil go'yo pir kabi,  
Aylanib, shaylanib, epchil sher kabi,  
Yolg'on dunyo moli o'tar sel kabi,  
Aylanib, o'rgilib qilgil namozni.

Bu dunyo zavqidir yemak va ichmak,  
O'qi besh vaqt namoz, hech vaqti kechmay,  
Do'zax bor, jannat bor, umringni sochmay,  
Aylanib, o'rgilib, qilgil namozni.

Bu yerda urug'ni socharing bilgil,  
Allohga tan berib, unarin bilgil,  
Yolg'onchi besh kundir, o'tarin bilgil,  
Aylanib, o'rgilib qilgil namozni.

Maxtumquli, sendan javob so'rilar,  
Bunda berilganlar unda olinar,  
Qiyomat – mahshar kun ko'prik solinar,  
Aylanib, o'rgilib, qilgil namozni.

## BIR ALLOHDIR

Yetti qat osmonni, yerni  
Mahkam etgan bir Allohdir.  
Ikki jahonning sarvari –  
Din Muhammad Mustafodir.

Muhammaddan avval o'tgan,  
Allohning sirriga yetgan,  
Tur tog'ida maskan tutgan  
Ul Muso Kalimullohdir<sup>126</sup>.

Necha mursal nabiy kechdi,  
Dunyoning oxiri puchdir,  
Kema bog'lab, Nuh-da kechdi,  
U dag'i Nabiyullohdir.

Siddiq, Umar, Usmon, Ali,  
Biri biridan sanoli,  
Ka'ba shahrinda binoli  
Ibrohim Xalilullohdir.

---

<sup>126</sup> Kalimulloh – Alloh bilan so'zlashgan zot, degani bo'lib, hazrati Muso alayhissalomning laqablaridir. Bunga dalil "Niso" surasining 164-oyatidir, ma'nosi: "Va Alloh Musoga xitob qilib, u bilan so'zlashdi". Yana "Baqara" surasining 253-oyati ham bunga dalil, ma'nosi: "Biz ushbu (nomi o'tgan) payg'ambarlarning ba'zilarini (O'zimiz ato etgan xislatlar bilan) ba'zilaridan ustun qildik. Alloh ulardan ba'zisi bilan so'zlashdi, ba'zisini esa darajalar bilan yuksalirdi".

Ya'qub yig'lar har kun saboh,  
Yusuf zindon tushib nogoh,  
Misr ichra Yusufga, oh,  
Oshiq bo'lgan Zulayhodir.

Tuproqdek zot bo'ldi oliy,  
Isrofil ham surga bog'li,  
Dovud Payg'ambarning o'g'li  
Ul Sulaymon podishohdir.

Haqdan tilarlar umrni,  
Tavakkul qildilar to'rt yorni,  
Haq yetkazsa zulfiqorni,  
Din quvvati Murtazodir.

Go'zal Alloh nazar solgan,  
Maryamning mehrida qolgan,  
To'rt Kitobning birin olgan  
Ul Isoyi Ruhullohdir.

Maxtumquli der: Jalilim,  
Unutmasin seni tilim,  
Hazrat Muhammad – vakilim,  
Sig'inganim bir Allohdir!

## BITMOQ KERAK

Alif **ا** – Alloh yo‘lidir, to‘g‘ri turib ketmoq kerak,  
Be **ب** – birligin Xudoning, barhaq bilib, bitmoq kerak,  
Te **ت** – tavbani aylabon, dunyoni unutmok kerak,  
Se **ث** – sobit qadam turib, Haq amrini tutmoq kerak,  
Jim **ج** – joizdir, Xoja quli, qulligin etmoq kerak.

Ha **ح** – hamdin yod etib, hukm ila jonni ayladi,  
Xe **خ** – Xudo Menman, dedi, ikki jahonni ayladi,  
Dol **د** – dalolat deyibon Mustafoni ayladi,  
Zol **ذ** – zalillik<sup>127</sup> chekmasin deb bosafoni<sup>128</sup> ayladi,  
Re **ر** – rahmat bahridan ixlos umid etmoq kerak.

Ze **ز** – ziyoda nafsingni dunyo uchun yeldirmagil,  
Sin **س** – Subhoning yod etib, g‘aflata toldirmagil,  
Shin **ش** – shayton yo‘liga, qul, ko‘nglingni oldirmagil,  
Sod **ص** – sabr ayla, savobing otasha yondirmagil,  
Zod **ض** – zabti birla so‘rsa, ne javob etmoq kerak?!

To **ط** – tama’ birla ko‘nglingni nafs yo‘liga solmagil,  
Zo **ظ** – zulm aylab, u kun do‘zaxda qolib yonmagil,  
Ayn **ع** – olam tuzdi karvon, sen andin qolmagil,  
G‘ayn **غ** – g‘aniy, mol-u mulkim boqiydir deb sonmagil<sup>129</sup>,  
Fe **ف** – farog‘at vaqt ekan, nafsingni rom etmoq kerak.

<sup>127</sup> Zalillik – xorlik.

<sup>128</sup> Bosafa – safoli, pok; bu o‘rinda chahor yori bosafa: Hazrati Abu Bakr Siddiq, Hazrati Umarul-Foruq, Hazrati Usmon zinnurayn, Hazrati Aliyil-Murtazo (roziyallohu anhum) nazarda tutilgan.

<sup>129</sup> Sonmagil – sanamagil, hisoblamagil.

Qof ق – qarobat<sup>130</sup> istasang, bu yo‘lda beling bog‘lagil,  
Kof ك – gunohing yod etib, tur, har saharlar yig‘lagil,  
Lom ل – lutfin qil umid, shavtondan o‘zing saylagil,  
Mim م – muroding istabon, o‘jizliging yod aylagil,  
Nun ن – nuri rahmatindan chin umid etmoq kerak.

Vov و – vasli rutbasin bir sirli bozor ayladi,  
Ho ه – halokatlik bilan oshiqclarin zor ayladi,  
Lo ل – iloha illalloh deb O‘zin oshkor ayladi,  
Yi ي – yerga berdi maskanat, osmonni davvor ayladi,  
Mard o‘lanlar ishq yo‘lida jonin unutmok kerak.

Yo ي – Yaratgan yo‘liga noningni bersang, oz hanuz,  
Tan barahna<sup>131</sup> o‘ltirib, to‘ningni bersang, oz hanuz,  
Rangi surxing so‘ldirib, qoningni bersang, oz hanuz,  
Chok etib, Maxtumquli, joningni bersang, oz hanuz,  
Nega jonon istagan jonini xo‘b tutmok kerak?!

## YOYLARI BORDIR

Qo‘nar, mundan – anglamaslar – ko‘charlar,  
Bedahliz qurilgan joylari bordir.  
Yoqasiz, etaksiz bir to‘n bicharlar,  
Eshiksiz, tuynuksiz uylari bordir.

<sup>130</sup> Qarobat – yaqinlik, Allohga yaqinlikni istasang, deyilmokchi.

<sup>131</sup> Barahna – yalang‘och.



Oxirat uyiga eltib solarlar,  
“Haq rahmat etsin!” – deb duo qilarlar,  
“Man Rabbuk?”<sup>132</sup> – deb Munkar, Nakir kelarlar,  
Javobin bermasang, voylari bordir.

Gunohing ko‘p bo‘lsa, yer seni qisar,  
Suyaging titratib, yuraging ezar,  
O‘ngingdan, so‘lingdan o‘t-yolqin esar,  
Benamozning shundoq ohlari bordir.

Asfalasofilin<sup>133</sup> unga darkordir,  
Shayton uning uchun ko‘p “madadkordir”,  
Jahannam degan bir do‘zaxi bordir,  
G‘iybatchining anda joylari bordir.

Qaroqchilar harom mollar izlagay,  
Topa olsa, pinhon yerda gizlagay<sup>134</sup>,  
O‘g‘ri gungdir, mol egasi so‘zlagay,  
Sijjiyn, Vayl otlig‘ joylari bordir.

Ko‘ra bilmas qardoshini, elini,  
Kecha olmas unda Sirot yo‘lini,  
Tamshana-tamshana chaynar tilini,

<sup>132</sup> Man Rabbuk? (arabcha) – Rabbing kim?

<sup>133</sup> Asfalasofilin – Qur‘on iborasi, “tubandan tuban” yoki “do‘zaxning eng past tabaqasi”, “Tin” surasi, 5-oyatidan.

<sup>134</sup> Gizlamoq – yashirmoq.

Fardo qiyomatda voylari bordir.  
Bismilloh, deb o'qib Qur'on-u Yosin,  
Ko'nglingdan chiqarma Haqning sanosin,  
Maxtunquli, Haq kechirgay gunosin,  
Jannotul-ma'vodek<sup>135</sup> joylari bordir.

## AMRI XON KELAR

Amalan solihan – yaxshi amal qil,  
Bir kun senga ravon amri Xon kelar.  
Azroil kelibon siqar oyoqdan,  
Og'iz tarafingdan aziz jon kelar.

Umring oxir bo'lsa, tandan jon ketar,  
Jon turmas, chidamas, seni tark etar,  
O'g'il-qizing muncha oh-u voy etar,  
Surat yotar, na quloqqa un kelar!  
Joningni qush qo'ltig'iga solarlar,  
Suratingni yer uyiga qo'yarlar,  
“Man Rabbuk?” – deb Munkar, Nakir kelarlar,  
Savoliga javob berar kun kelar.

Omonat – xiyonat, bermasang qarzni,

---

<sup>135</sup> Jannotul-ma'vo – Qur'on iborasi bo'lib, Ma'vo jannatlari, demakdir. “Sajda” surasi, 19-oyatga ishora, ma'nosi: “Iymon keltirgan va solih (Alloh rizosiga muvofiq) amallarni qilganlar esa, ular uchun (bu amallarga mos) izzat-ikrom maskani o'laroq Ma'vo jannatlari bordir”.

Ado aylamasang sunnatni, farzni,  
Munkar, Nakir urar ul o'tli gurzni,  
Og'izdan, burundan qaro qon kelar.

Tutgil Haq buyrug'un, ey Maxtumquli,  
Jahd ayla kundan-kun, ey Maxtumquli,  
Tinchima biror zum, ey Maxtumquli,  
Qabr ichinda senga ishlar keng kelar.

## OLDINGDA

Ne kuningga shod bo'larsan, odamzod,  
Sonsiz xatar, oh-u zorlar oldingda.  
Nechuk toqat qilar bir hovuch tuproq,  
Yetti do'zax nomli norlar<sup>136</sup> oldingda.

Bevafoda besh kun bo'lgan shodingga  
Aldanmagil, ul kun tushar yodingga,  
Tong-la unda hech kim yetmas dodingga,  
Qabr, lahad degan torlar oldingda.

Bilarsan, bevafo, e'tiboring yo'q,  
Yomon ish qilmoqdan o'zga koring yo'q,  
Ey beg'ayrat, nomusing yo'q, oring yo'q,  
Xavf-u xatar beshumorlar oldingda.

---

<sup>136</sup> Norlar – olovlar, do'zaxlar.

Zarra-zarra, bir-bir soʻrsalar hisob,  
Roʻsiyo, sharmanda, berarsan javob,  
Istar seni, bermoq uchun zoʻr azob,  
Yuz ming, sonsiz xaridorlar oldingda.

Eshit bu dam, agar boʻlsang gʻayratli,  
Holing boʻlar kundan-kunga hayhotli,  
Chaqaman deb oʻtiribdir haybatli –  
Bugʻro kabi ulugʻ morlar oldingda.

Gʻofil boʻlib, amri maʼruf etmasang,  
Bilib turib, toʻgʻni yoʻlga ketmasang,  
Oxirat yarogʻin munda tutmasang,  
Foydasiz pushaymon, zorlar oldingda.

Maxtumquli, nechun gʻofil yurarsan?  
Bebaqo dunyoda toki turarsan,  
Necha savdo bor boshingda, bilarsan,  
Sirot uzra intizorlar oldingda.

## MOR CHIQAR

Ey yoronlar, oxirzamon boʻlganda,  
Besh kishi deb, Xorish oʻtli mor chiqar.  
Munda yomon yoʻlda kezgan qardoshlar,

Mahshar kuni unda yeri tor chiqar.

Boldandir, sutdandir oqqan bulog'<sup>137</sup>,  
Mo'minlarning Buroq bo'lar ulovi,  
Ya'juj-Ma'juj – yerga tegar qulog'i,  
Do'stim, shunday nishonali xar chiqar.

Dunyo bilan dinlarini buzganlar,  
G'iybat so'zlab, yolg'on guvoh tuzganlar,  
Nomahramga nazar solib kezganlar,  
Munda ko'zli bo'lsa, unda ko'r chiqar.

Kofirlarning toshlar inar sarindan,  
Ali, Xotam chiqmas jannat to'rindan,  
“Voy ummatim!” – deya turar yerindan,  
Mahshar kuni Rasul otli er chiqar!

Maxtumquli, bu yo'llardan chiqmagil,  
Tuzilgan rabotdir, dining yiqmagil,  
Uzilmas tuhmatni o'zga taqmagil,  
Haqqa to'g'ri kelgan, balki sher chiqar!

---

<sup>137</sup> Qur'oni karimning “Muhammad” surasi, 15-oyatida kelgan xushxabarlar, oyat ma'nosi: “Muttaqiylarga (Allohning amrlariga muvofiq yashaydigan va qarshi borishdan saqlanadigan zotlarga) va'da qilingan jannatning sifati (budir): unda (hech xususiyati) buzilmagan suvdan anhorlar, ta'mi hech o'zgarmagan sutdan anhorlar, ichgan kishilarga (har on) lazzatlar baxsh etuvchi sharobdan anhorlar va musaf-fo asaldan anhorlar bordir. Va unda barcha mevalar va yana Rabbilari tarafidan bir mag'firat ular uchundir”.

## KO'RGACH, RASUL

Tushdi bir xushlug' jahonga, nusrating ko'rgach, Rasul,  
Sarnigun bo'ldi sanamlar, lam'ating<sup>138</sup> ko'rgach, Rasul,  
Kulli olam bo'ldi iqror, sunnating ko'rgach, Rasul,  
Rohi zulmat bo'ldi ravshan, oyating ko'rgach, Rasul,  
Topdi do'zaxdan omonlig', suhbating ko'rgach, Rasul!

Senki kelding olama, butlar bo'lishdi sarnigun,  
Ortdi Islom shuhrati, kofirlar o'ldi xam, zabun,  
Ham Abu Bakr-u Umar, Usmon chu bo'lgach rahnamun<sup>139</sup>,  
Bo'ldi kofir zid sanga, ismi mukrim<sup>140</sup>, mo'minun,  
Ikki dunyo bo'ldi xushnud, rahmating ko'rgach, Rasul.

Hurmat aylab Haq salom bergan Safiyyulloh kabi,  
Olami g'arq aylagan Nuhi Nabiiyulloh kabi,  
Ko'kda kunga yor o'lan Iysoi Ruhulloh kabi,  
Necha ming payg'ambar, ul Muso Kalimulloh kabi,  
Qoldilar hayratda, "Lavlok"<sup>141</sup> xil'ating ko'rgach, Rasul.

<sup>138</sup> Lam'a – shu'la, yulqin, porloqlik, ravshanlik.

<sup>139</sup> Rahnamun, rohnemun (forscha) – yo'l ko'rsatuvchi, yetakchi.

<sup>140</sup> Mukrim – izzat va hurmat etuvchi.

<sup>141</sup> "Lavlok" – "Lav loka lamo xolaqtul-afloka", ya'ni: "Agar sen bo'lmaganingda, falaklarni yaratmagan bo'lar edim", degan muborak hadisi qudsiyga ishora. Bu so'zni Alloh taolo Hazrati Payg'ambarimiz alayhissalomga nisbatan aytgan. (Ma'nosi Allohndan, lafzi hazrati Rasulullohdan (sollallohu alayhi va sallam) bo'lgan hadislar hadisi qudsiy deyiladi.)

Ul shabi me'roj xabar yetgach sanga Ma'shuqdan,  
Arsh-u Farsh topdi tajalliy chun muningdek shavqdan,  
Bu muqarrablar base bobahradurlar zavqdan,  
Ham bisoti qurb<sup>142</sup> uza bording, o'tirding favqdan<sup>143</sup>,  
Qo'ydi tish barmoqqa munlar qurbating ko'rgach, Rasul.

Davri sobiqda o'tanlar, yo, jamoling ko'rdi chin,  
Gardishi shonida qolgan mu'taqidlardan yaqin,  
Qullug'inda kun xijolat ichra qolmish, ham zamin,  
Ham falak uzra malaklar dedilar: "Sad ofarin!"  
Bu maqom a'lo bilan ul himmating ko'rgach, Rasul!

Yo Habib! Ishqing bila bu tanda jonim so'z etar,  
Kun yuzin Haq qaytarib, bir o'zga mayli ro'z etar,  
Erta mahshar olam ahlin yuz yigirma juz etar,  
Istasa nori saqar ummatlaring ma'xuz<sup>144</sup> etar,  
Daf o'lar nori jahannam haybating ko'rgach, Rasul!

Hamdinga tillar qurubon, Arsh-u farshlar yig'ladi,  
Bedahon-u bezabon o'tlar, og'ochlar yig'ladi,  
Ashki obin jo'shdirib, bu tog'-u toshlar yig'ladi,  
Yetti kun Ka'ba tashinda qurt-u qushlar yig'ladi,  
Aytadur Maxtumquli bu furqating ko'rgach, Rasul!

<sup>142</sup> Bisoti qurb – yaqinlik maqomi, to'shamasi.

<sup>143</sup> Favq – yuqori, ust, yuksak.

<sup>144</sup> Ma'xuz – azobga olmoq.

## BAG'ISHLA BIZNI

Rasul domodidir, O'z arsloningdir,  
Yo Imom Ali-yo, bag'ishla bizni.  
Chashmi chirog'imdir, nuri aynimdir,  
Yo Imom Hasan-o, bag'ishla bizni.<sup>145</sup>

Yolg'on dunyo kimga berdi vafoni?  
Oxiratda ular surar safoni,  
Shamr ila ul Yazid qildi jafoni,  
Yo Imom Husayn-o, bag'ishla bizni.

Nasri Sayyor, Marvon hakam davrinda,  
Imomlar qoldilar jafu javrinda,  
Chohga otturdilar Damashq shahrinda,  
Zaynul-Obidin-o, bag'ishla bizni.

Teng-to'shlar yonida bir bekamolam,  
Oshig'i majnunam, shikastaholam,  
Siyneyi haroson<sup>146</sup>, zuvvori olam<sup>147</sup>,  
Yo Imom Rizo-yo, bag'ishla bizni.

<sup>145</sup> Bag'ishla bizni – bizni kechir, gunohimizdan o't.

<sup>146</sup> Haroson – qo'rquvchi, qo'toqqan.

<sup>147</sup> Zuvvori olam – olam ziyoratchilari, olamni ziyorat qiluvchilar.



Imomlar ishqinda menga bergil jom,  
Ochayin zabonni, o'qiyin Kalom,  
Allohi barhaq, ul Fotmayi qiyom,  
Muhammad Taqiy-yo, bag'ishla bizni.

Dunyoda chekdilar yuz dard-u dog'ni,  
Mahshar kun minarlar bezab Buroqni,  
Haqiqat yo'lining sham-u chirog'i,  
Muhammad Naqiy-yo, bag'ishla bizni.

Fotima Zahrodir aning onosi,  
Zotida bir zarra yo'qdir gunosi,  
Humoyun tog'idir oxir binosi,  
Muhammad Boqir-o, bag'ishla bizni.

Kamoli falakdan oshibdir Arshdan,  
Boshga qo'ydi jaddi<sup>148</sup> kiygan u tojdan,  
Uch karomat bila qoldi Hajjojdan,  
Yo Imom Ja'far-o, bag'ishla bizni.

Kim bilar, ishingda qandayin sir bor,  
Aql anga yetishmas, qudratli Jabbor,  
Dushmaningga do'sting etding giriftor,  
Yo Muso Kozim-o, bag'ishla bizni.

---

<sup>148</sup> Jaddi – boba.

Yaqiyn ko'ngul birla mushtog'am, banda,  
Yodingiz aylarman, to borman zinda,  
Nomi kundan mashhur bo'lmish jahonda,  
Yo Imom Asqar-o, bag'ishla bizni.

Qof tog'idan yo'l ochilsa Ma'jujga,  
Dunyo yuzi to'lar zulm ila kuchga,  
Zamon oxirinda kelar xurujga,  
Yo sohibzamon-o, bag'ishla bizni.

Maxtumquli aytar, men xoki poyam,  
Imomlar yo'lida bir jonfidoyam,  
Kamina bandayam, kalbi gadoyam,  
Yo Abbas, Aliy-yo, bag'ishla bizni.

### **OXIRZAMON KELAR**

Ey yoronlar, musulmonlar,  
Bir kun oxirzamon kelar.  
Ko'hi Qof tog'idan oshib  
Dajjol u dam ravon kelar.

Ushbu dunyodan kechganlar,  
Haqning sharobin ichganlar,  
Otasidan yosh ketganlar  
Suv ko'tarib, ravon kelar.

Xudoyimning rahmati deb,  
Haq buyrug'in qilmadi deb,  
Sahar Haqqa yig'ladi deb,  
Sakkiz bihisht xubon kelar.

Ummatlarga shafqati deb,  
Muhammadning ummati deb,  
Jannat ichra kiringlar deb,  
Xudoyimdan farmon kelar.

Jahondan o'tdi ne jonlar,  
Munda qilib xayr-ehsonlar,  
Ey yoronlar, musulmonlar,  
Anda taxti ravon kelar.

Maxtumquli, xayrot<sup>149</sup> qilsang,  
G'ariblar ko'nglini olsang,  
Pulsirotdan o'tarda so'ng,  
Munda bergan qurbon kelar.

## YIG'LASHMOQ BORDIR

Nodon ko'nglim, bu ne shod bo'lib kulmoq,  
Tong-la kun g'am kelar, yig'lashmoq bordir.  
Oqil ersang, olam ahlin suymagil,  
Bebaqodir, ayro bo'lishmoq bordir.

<sup>149</sup> Xayrot – yaxshiliklar, xayr-saxovatlar, savob uchun qilingan yaxshi amallar.

Do'stlar, esar bir kun ajalning yeli,  
Xazon urib, so'lar umring tar guli,  
Aziz jonga yetar ajal changali,  
Aylanib, aylanib, yozlishmoq<sup>150</sup> bordir.

Yer yutar bir kuni qaddi dolingni,  
Haqdan o'zga hech kim bilmas holingni,  
Yelib-yugurib yiqqan dunyo-molingni  
Bir-bir hisob etib, paylashmoq bordir.

Boqiy yurtida yiling, kuning kutarlar,  
Yetti qadam yurgandan so'ng, qol derlar,  
"Rabbing, Nabing kimdir? Dining ne?" – derlar,  
Toqat qilib, javob olishmoq bordir.

Manmanlikdir bir odamning xayoli,  
Tong-la ma'lum bo'lar hammaning holi,  
Mezon – tarozuga tushib a'moli,  
Xayran, sharran azm<sup>151</sup> qilishmoq bordir.

Tong-la kun qiyomat – mahshar qurilar,  
Qul-xoja, fil-pashsha barobar bo'lar,  
Ins-u jin, jon ahli – hamma tirilar,  
Shoh oldinda hisob olishmoq bordir.

<sup>150</sup> Yozlishmoq – bu o'rinda cho'zilib qolmoq, o'lmoq.

<sup>151</sup> Azm – biror ishga qasd, niyat qilish, intilish, yurish, jo'nash.

Do'stlar, bordir Sirot otlig' bir guzar<sup>152</sup>,  
Ming yillik yo'l bo'lar yo'li sar-basar,  
Qildan nozik, qilichdan ham tez kesar,  
Ming yil tushib, ming yil chiqishmoq bordir.

Maxtumquli, shul xavflardan o'ttingmi?  
Iymon topib, murodingga yettingmi?  
Yo ho, jannat ichra makon tutingmi? –  
Ancha titrab, hayron bo'lishmoq bordir.

## ROBBIYAL-A'LO

Ey, amringdan osmon tushdi rukuga,  
Sanosi: "Subhona Robbiyal-a'lo".  
Bardor bo'lib yer ham bordi sujudga,  
Sajdadan bosh olmay, aytar: "Yo Mavlo!"

Ismingda hayot bor, dengizda – dalg'a,  
Zamin toshga do'ndi, osmon ham – dalvga<sup>153</sup>,  
Ul toshga aylagach jamoling jilva,  
Zavqi vasling seli to'ldirdi daryo.

Ey, zotingdan dunyo jon topdi akbar,  
Mo'minga mir'oting, mir'otga manzar<sup>154</sup>,

<sup>152</sup> Guzar – o'tish joyi.

<sup>153</sup> Dalv – 1) quduqdan suv olinadigan charm idish, qovg'a; 2) falakiyot ilmidagi osmondagi o'n ikki burjning biri.

<sup>154</sup> Manzar – 1) ko'rinish, surat, shakl; 2) qaraladigan, nazar tashlanadigan joy.

Sen go'yo – mohtobsan, as'hobing – axtar<sup>155</sup>,  
Topdi olam aning birla ihtido<sup>156</sup>.

Aqldan paydodir farzandi azhar<sup>157</sup>,  
Bo'ldi hush ahliga har varaq daftar,  
Hamdingga mavjudot bo'libdir azbar,  
Har biri bir ayro til bilan go'yo.

O'rnida yo'q edi ikki jahonni,  
Qudratdan bor etding jumla zaminni,  
Irodang aylamish ushbu do'konni,  
Bu bozorga Sensan dono-yu bino.

Maxtumquli, foniyan farsh farq etmish,  
Bani jon yer yuzin jurmga g'arq etmish,  
Zar zavqin jon xavfi birla tark etmish,  
Mansha-u<sup>158</sup> bolo-yu manzil-u ma'vo.

## O'Z OVINDA BILINAR

Qarg'a o'zin olg'ir bilar lochindan,  
Har birisi o'z ovinda bilinar.

---

<sup>155</sup> Axtar – yulduz. “Mening sahobalarim yulduzlar kabidirlar, qaysi bingga ergashsangizlar, to'g'ri yo'lga topasizlar”, degan muborak hadisi sharifga ishora.

<sup>156</sup> Ihtido – to'g'ri yo'lga yo'nalish, to'g'ri yo'ldan borish, hidoyat topish.

<sup>157</sup> Azhar – yorug'roq, ravshanroq.

<sup>158</sup> Mansha' – bir narsaning chiqib kelgan o'rnini, kelib chiqish joyi, boshlanishi.

Eshak aytar: "Kam emasman bedovdan",  
Qimmatinda, bahosinda bilinar.

Dunyoga odamning hech ko'zi to'ymas,  
Har kishi lof bilan ilgari bo'lmas,  
Har odamning xosiyati bir bo'lmas,  
Qilichinda, til, so'zinda bilinar.

Nelar kelmas odamzodning boshiga,  
Munosibi bo'lmasa teng-to'shiga,  
Yigit farqin ma'lum etar ishida,  
Afzunligi osh-noninda bilinar.

Maxtumduli aytar: faqir nolasi  
Olamga yog'dirar armon jolasin,  
Faqirga zarb urgan zolim bolasi  
Lahatinda -- mozorinda bilinar.

## **BO'LAR YER ANDADIR**

Barcha "insonman" degan inson bo'lar yer andadir,  
Miskin oti birla o't, sulton bo'lar yer andadir,  
Toat-u ro'za, namoz qilgon bo'lar yer  
andadir, Shod-u xurram bo'lmagil, hayron bo'lar yer  
andadir,  
Kimga jannat, kimga nor farmon bo'lar yer andadir.

Bu abas dunyoni qo'y, uqbo<sup>159</sup> ishiga qil havas,  
Qil tavakkul Tangriga, zikrida bo'lgil har nafas,  
Bunda o'l, unda tiril, ushbu tiriklikdir abas,  
Oqil uldur, oxirat g'amidan o'zga g'am yemas,  
G'am yeganlar ochilib xandon bo'lar yer andadir.

Bir mukammal ilkin ol, zikrida bo'lgil har zamon,  
Ko'p mashaqqatlar ko'rar yo'qsa o'shal kun jism-u jon,  
Kim uqubat ichra qolgay, kimlari bo'lgay omon,  
Kimlari shod, kimlari ko'zida yosh, bag'rida qon,  
Fazlin etsa, mushkul ish oson bo'lar yer andadir.

Foniy bo'lmakdir g'araz bu dunyodan ins-u pari,  
Bu fanoda kim qolar, kechdi Rasuldek sarvari!  
Rustami doston qani ul, Sheri Haq, ham Haydari!?  
Ro'zi mahshar Mustafoga yig'lashib ummatlari,  
"Kel, shafokat qil!" – deya g'iryon bo'lar yer andadir.

Ko'p xato ish aylading, chekding jafu-vu dardi sar,  
Mol-u mulking barchasi kulli abasdir, bexabar,  
Aylagil toza tahorat, Haq kitobin qil nazar,  
Tangriga zor aylabon, qilgil duoni har sahar,  
Qulluq ila dardinga darmon bo'lar yer andadir.

Zikr ila tanhoda bo'l, xalqqa tamalik istama,

<sup>159</sup> Uqbo – oxirat.



Dod berar Shoh andadir, sen bunda shohlik istama,  
O'zungi kam tut, vale ortiq baholik istama,  
Necha kun foni erur, boqiy fanolik istama,  
Kim erur qimmatbaho, arzon bo'lar yer andadir.

Senki, noinsof bo'lib, insofni hech keltirmading,  
Ajdahodek og'z ochib, nafsingni bir o'ldirmading,  
Tong-la ishni fikr etib, bir dam sukut o'tirmading,  
Xavfi ko'p, qilding gunohni, hech kima bildirmading,  
Ayning ochib, olama doston bo'lar yer andadir.

Bu ajal sayyodi bir kun qoning ichmakdir g'araz,  
Xon-u moningni buzib, tuproqqa sochmakdir g'araz,  
Bir zamon manzil tutib, bir damda ko'chmakdir g'araz,  
Zindalikda g'affatingdan ko'zni ochmakdir g'araz,  
G'aflat ichra umr o'tib, armon bo'lar yer andadir.

Shod yurma, sen amal qil, demagil: "Kundir bu kun",  
"Yavmi a'zam"<sup>160</sup> nomladilar, xavfi ko'p kundir u kun,  
Ol oziq yo'ldosh ila, mardon yo'linda bo'i bu kun,  
Kim u jannat sayr etib, kim nor ichinda sarnigun,  
Dini nohaq kofiri yakson bo'lar yer andadir.

---

<sup>160</sup> Yavmi a'zam – ulug' kun, ya'ni qiyomat kuni.

## OXIRZAMON BO'LAR

Ey yoronlar, musulmonlar,  
Bir kun oxirzamon bo'lar.  
Bo'lmay, oldin ko'p nishonlar  
Yer yuzinda chandon bo'lar.

Adolatsiz bo'lar xonlar,  
Behayo bo'lar zanonlar,  
Ko'p to'kilar nohaq qonlar,  
Elning fe'li yomon bo'lar.

Fasod ish ko'p bo'lar, oz bo'lmas,  
Bu uy ul uyga soz bo'lmas<sup>161</sup>,  
Yomg'irlar yog'ar, yoz bo'lmas,  
Bir kun bodi xazon bo'lar.

Hiyla aylar, topar yo'llar,  
Sudxo'rlikdan yig'ar mollar,  
Din yo'lini tashlab ellar,  
Na maktab, na azon bo'lar.

Namoz qo'yar, so'zlar yolg'on,  
Ota-onaga osiy bo'lg'on,  
Chog'ir ichib, zino qilg'on,  
Azobi ming alvon bo'lar.

<sup>161</sup> Bu o'rinda: teng bo'lmas, muvofiq bo'lmas, munosib bo'lmas.

Qo'lin tut Tangri do'stining,  
Osiy bo'lma, saqla dining,  
Inshoalloh, Maxtumqulining  
Din yo'ldoshi iymon bo'lar.

## BESHAK YONDIRAR

Subhidam o'qisang namozi bomdod,  
Ro'z-u shab gunohni, beshak, yondirar.  
Jannatga yuzlansang, yo'llari obod,  
Kavsarda to'rt ariq suvga qondirar.

Peshinni o'qisang, o'tarsan farzing,  
Qabuldir Allohdan tilagan arzing,  
Bihishtning eshigin ochar to'rt farzi<sup>162</sup>,  
Qo'lin ochib, porloq taxtga mindirar.

Allohnı vod etib, tursang saharda,  
Haq bilan orada qolmagay parda,  
To'rt farzni o'qisang namoz-digarda,  
Olimlar namozning hadisın qilar.

Shomni o'qiganda, shaytonlar yig'lar,  
Ko'ksiga tosh urib, siynasin dog'lar,  
Do'zax eshigini uch farzi<sup>163</sup> bog'lar,  
Sabr etsang, do'zaxning o'tin so'ndirar.

<sup>162</sup> To'rt farzi – to'rt rakat farzi, ma'nosida.

<sup>163</sup> Uch farzi – uch rak'at farzi, ma'nosida.

Xuftonda vitr o'qib yotsang sarishta,  
Rozi bo'lar sendan Qunut-farishta,  
Agar barjoy etsang ushbu ravishda,  
Xayring<sup>164</sup> oshkor etib, sharring<sup>165</sup> so'ndirar.

Maxtunquli, munda turmassan boqiy,  
Bardavom – subh-u shom yod ayla Haqni,  
Besh vaqt namozingni sen yaxshi o'qi,  
Otashi do'zaxning barin so'ndirar.

## YORLAQAGIL GUNOHIMNI

Xudoyo, Sen karam birla  
Yorlaqagil gunohimni.  
Afv qil jurmimni mendan,  
Yorlaqagil gunohimni.

Jafolarga meni tutma,  
Gunohkor ahliga qotma<sup>166</sup>,  
Do'zaxning o'tiga otma,  
Yorlaqagil gunohimni.

Gunohim ko'p erur behad,  
Mening holimga Sen rahm et,

<sup>164</sup> Xayringni – yaxshi amalingni.

<sup>165</sup> Sharningni – yomon amalingni.

<sup>166</sup> Qotma – qo'shma.

Tilakdan qilmagil navmid<sup>167</sup>,  
Yorlaqagil gunohimni.

Agar sud-u ziyon qildim,  
Ki bilmasman, yomon qildim,  
Sanga dardim ayon qildim,  
Yorlaqagil gunohimni.

Karamlik Podshohimsan,  
Yaqiyn bildim, Allohimsan,  
Mening pusht-u panohimsan,  
Yorlaqagil gunohimni.

Sening zoring bo'libdirman,  
Giriftoring bo'libdirman,  
Gunohkoring bo'libdirman,  
Yorlaqagil gunohimni.

Yuzin Maxtunquli, yo Rab,  
Sanga tutdi, bo'lib tolib,  
Yo'q dardima Sendek tabib,  
Yorlaqagil gunohimni.

---

<sup>167</sup> Navmid – noumid.

## KELSA KERAKDIR

Omanno, sadda<sup>168</sup>, mahshar kunlari,  
Bir kun oldimizga kelsa kerakdir.  
Xatar ayla, esar ajal yellari,  
Jasaddan jonlarni olsa kerakdir.

Ajal to'g'ri kelsa, qarshi turarsan,  
Qochar imkoning yo'q, ko'ksing kerarsan,  
Yoqasiz, etaksiz to'nga kirarsan,  
Tuynuksiz uylarga solsa kerakdir.

Munkar, Nakir so'rar, qo'yimas xushingga,  
Hech faryoding yetmas tegra-to'shingga,  
Yaxshi-yomon, qilgan ishing boshingga  
Birin-birin qaytib kelsa kerakdir.

Dabbatul-arz<sup>169</sup> eltar boshda Qur'onni,  
Sayr etib kezarmish olam-jahonni,  
Bir Nildek suv yig'ilib tutar dunyoni,  
Ko'rinmas botqoqlik kelsa kerakdir.

<sup>168</sup> Omanno, sadda<sup>qno</sup> – ishon<sup>dik</sup> – iymon keltirdik – tasdiq etdik.

<sup>169</sup> Dabbatul-arz – yer hayvoni, qiyomat yaqinlashganda yerdan chiqib, insonlarga gapiradigan maxluq. Qur'onni karimning "Nami" surasi, 82-oyatida bildirilgan; ma'nosi: "(Qiyomat qoim bo'lishi haqidagi) so'z ularning boshiga kelgan vaqtda Biz ular uchun yerdan bir hayvon (ajib va g'aroyib bir maxluq) chiqarurmizki, u insonlarning oyatlarimizga qat'iy ishonmaganliklarini aytib ularga gapirur. (Bas, shunda tavba eshigi yopilur, haqiqiy mo'minlar bilan iymonsizlar ma'lum bo'lur.)"

Yuragim jo'shtirar ishqing havasi,  
Yiqilar, yo'q bo'lar dunyo binosi,  
Eron, jiyron<sup>170</sup> tushar mahshar g'avg'osi,  
Arosat-maydonga kelsa kerakdir.

## OSHIQ BO'LMISHAM

Ey yoronlar, bir yuzi gul, oya oshiq bo'lmisham,  
Barchalar maqsudi – gul ra'noya oshiq bo'lmisham.  
Bulbulam bog' ichra, bir g'avg'oya oshiq bo'lmisham,  
O'zi g'oyib, zulflari yaldoya oshiq bo'lmisham.  
Manzirim tog' ichradir, sahroya oshiq bo'lmisham.

Chun falak soldi meni, ul kun fano tufrog'ina,  
Tushdi sayrim doimo Makka, Madina tog'ina,  
Bulbul o'ldim, sayradim, kirdim Framning bog'ina,  
Poyiband o'ldim u kun g'am ahlining tuzog'ina,  
Yuz balo-mehnatli bir savdoya oshiq bo'lmisham.

Ko'nglim ichra yor g'amidir, manzirim sahroda, hey,  
Po'shishim<sup>171</sup> g'am-g'ussadir, men do'nmisham

Farhoda, hey,

Soldi ishqing, dilbar-o, jon-u jigarim o'ta, hey,  
Vo darig'-o, kechdi umrim zoye, berdim boda, hey,

<sup>170</sup> Eron – ma'lum mamlakat; jiyron – qo'shnilar (jor so'zining ko'pligi); ya'ni mahshar g'avg'osi Eronga ham, qo'shni yurtlarga ham – barcha mamlakatlarga tushadi, deyilmoqda.

<sup>171</sup> Po'shish – kiyim, libos.

Oh! ko'p, afg'oni ko'p, bir ko'ya oshiq bo'lmisham.  
Bilmaram, ul ne bahrdir, ne muazzam tog'idir,  
Oldi ko'nglim, ketdi aqlim, tan mudom nosog'idir,  
Oni nisbat etmak o'lmas – qumri, bulbul, zog'idir,  
Alg'araz, har zulfina yetmish ming er tuzog'idir,  
Qaddi-qomati baland zeboya oshiq bo'lmisham.

Do'st, havoyi vaslini men chand-u chandon istaram,  
Domi zulfing kaydina<sup>172</sup> o'zimni zindon istaram,  
Dema: g'amdan bir zamon ko'nglimni xandon istaram,  
Bir g'arib oshiq manam, yor, Seni Sendan istaram,  
Kecha-yu kunduz, biling, huv-hoya oshiq bo'lmisham.

Vasli yorimdan digarga intuzorim yo'q mening,  
Qolmisham hayron o'lib, g'ayri madorim yo'q mening,  
Oldi jonim ishqing o'ti, ixtiyorim yo'q mening,  
Kelsa, aqlim tarqalar, ketsa, qarorim yo'q mening,  
G'amzasi o'q, qoshlari ul yoya oshiq bo'lmisham.

Aytadir Maxtumquli: men anda kona uchradim,  
Sayr etib bordim falakka, lomakona uchradim,  
Chun meni rasvo qilgan ishqiy yagona uchradim,  
Yetmish ikki shahr aro ming bir do'kona uchradim,  
Shuncha sargardon sabil-u roya<sup>173</sup> oshiq bo'lmisham...

<sup>172</sup> Kayd – makr, hiyla, tuzoq.

<sup>173</sup> Bu satrning "Zoya oshiq bo'lmisham" degan nusxasi ham bor (tarjimon).



## BO‘LDIM GIRYONA

Yoziq‘im yod etib, yoqam chok etib,  
Sahar nolish bilan bo‘ldim giriyona.  
Diydamdan yosh to‘kib, siynam chok etib,  
Telbalardek o‘zim urdum har yona.

Ko‘nglimni kechirdim jumla-jahondan,  
Ne jahondan, balki qo‘l uzdim jondan,  
Xizrdan, Iysodan, Shohimardondan  
Himmat istab, boqdim so‘yi osmona.

Osmonning yuzindan kakhshon uchdi,  
Nogahon uch erga nazarim tushdi,  
Ikki – yashil kiymish, bir – safidpo‘shdi,  
Ko‘zim ko‘rdi, tilim kelmas farmona.

Biri kelib, qo‘lin ko‘ksimga urdi,  
Biri bir tig‘ bilan yuragim yordi,  
Og‘zimga lab qo‘yib, biri dam urdi,  
Dedilar: “Arzing ayt Shohimardona!”

Ular shunday degach, tilim ochildi,  
Qona-qona may-muhabbat ichildi,  
Ko‘nglimga yetti tur savol kechildi,

Dedim: “Ruxsat bo‘lsa, kelsin zabona!”

Ikki uzun erdir, bir qisqa qaddir,  
Dedilar: “Xush vaqtdir, yaxshi fursatdir,  
So‘zing bo‘lsa, so‘ra, – derlar, – ruxsatdir,  
Dilga kelgan so‘zing keltir bayona!”

Dedim: “Ko‘kdan og‘ir, yerdan mard nadir?  
Daryodan boy nedir, dashtdan saxt nadir?  
O‘tdan yoquvchiroq, muzdan sard<sup>174</sup> nadir,  
Zahardan zaqqumroq nedir bu jona?”

Dedi: “Yomon tuhmat og‘ir osmondan,  
Qahrsiz yaxshi so‘z kengdir jahondan.  
Munofiqlarning ko‘ngli saxt sangistondan,  
Ahli qone<sup>175</sup> mengzar bahri ummona.

Jabr etuvchi sulton – yoquvchi kuzdan,  
Baxildan so‘ramoq – sovuqdir muzdan,  
Faqirga jabr etmoq – achchiq zaqqumdan,  
O‘gildir bu so‘zlar, bizdan nishona”.

Ular shunday degach, o‘rnimdan turdim,  
Chopib, etagiga qo‘limni urdim,  
Mast bo‘ldim, sust bo‘ldim, o‘zimdan bordim,

<sup>174</sup> Sard – sovuq.

<sup>175</sup> Ahli qone – qanoat ahli.

Gap-kalom topmadim, qoldim hayrona.

Dedilar: “Uch kishi bo‘ldik, ustoding,  
Doim doston bo‘lsin olamda oting,  
Maxtumduli, vaqtdir, ista muroding”, –  
Sirin nodon ochar, yo bir devona...

## YOR KERAKDİR

Manman degan mard yigitga,  
Bir munosib yor kerakdir.  
Arab ot, yovqur yigitga,  
Olmos zulfiqor kerakdir.

Yigit uldir – yurt ustinda,  
Jonin berar or ustinda,  
Mard yigitlar, el ustinda,  
Nomus birlan or kerakdir.

Besh kun ko‘ngul xush etmoqqa,  
Xonlar yozib, non to‘kmoqqa,  
Obro‘y olib, nom topmoqqa  
Qo‘llarida bor kerakdir.

Makka borgan – bo‘lar hoji,  
Ayriliq – o‘limdan achchi,  
Mard yigitning din – qilichi,

Oshiqqa diydor kerakdir.

Orttirar falak oh-zoring,  
Olar qo'ldan ixtiyoring,  
Maxtunquli, sevar yoring  
Siyoh zulfi tor kerakdir.

### YOQQANCHA BO'LMAS

Har nodonga sochma darding, so'zingni,  
Hasrat o'ti jisming yoqqancha bo'lmas.  
G'ussa bilan dona-dona ko'zingdan  
Ashki nadomating oqqancha bo'lmas.

Qone bo'lib, izzatda tut o'zingni,  
Tama qilib, sarg'aytmagil yuzingni,  
Har nomardga hayf aylama so'zingni,  
So'zingning binosin yiqqancha bo'lmas.

Mag'rur bo'lib kezma umring guliga,  
Sovrilarsan bir kun xazon eliga,  
Yuz yil yashab, tushsang ajal qo'liga,  
O'ngingdan chapingga boqqancha bo'lmas.

Sulaymondan ortiq bo'lsa shavkating,  
Larzona keltirsa ko'kni haybating,

Ko'ksing uzra gurzi ura ra'yating<sup>176</sup>,  
Ajalning jallodi qoqqancha bo'lmas.

Ko'ngli qora bilan bo'lmanglar ulfat,  
Yuqar undan turli-turli kasofat,  
Har necha ko'mirga aylasang izzat,  
Egningga qorasi yuqqancha bo'lmas.

Maxtumquli hargiz topmadi omon,  
Til yomoni tig'dan, tabardan<sup>177</sup> yomon,  
Yomon til yonida zahri ko'p ilon  
Chaqsa-da, bir chibin chaqqancha bo'lmas.

---

<sup>176</sup> Ra'yating – raiyating, ya'ni, o'z xalqing, o'z odamlaring.

<sup>177</sup> Tabar – bolta.

## MUNDARIJA

Karam ayla, yo Rab, qudratli Subhon.....	3
Iymonim yo'ldosh bo'lsa .....	4
Yo Rab, xabar bilarmanmi, yor, sandan! .....	5
Bilgan bormi, yoronlar?.....	7
Yo Rab, qulamasmi buyuk tog'lar, hey!.....	9
Barcha ish haqning koridir.....	10
Yong'ir yog'dir, sultonim!.....	11
Chin bedovlar maydonida bilinar .....	13
Adolat yaxshi.....	14
Niyatim Ka'badir, xayolim hajdir.....	15
Yaxshi qaysi, yomon qaysi, bilinmas.....	17
Yaxshidir.....	18
Hosiling nedir sening? .....	19
Xabar ber!.....	20
Oxirzamon ichinda .....	23
Oqil uldir, mayl etmasa dunyoga.....	24
Beklar .....	26
Orif bo'lsang, so'z ma'nosin ocharsan .....	27
Beklar-shohral qolmaslar.....	29
Odam o'g'li, yotma g'ofil.....	30
Aylanmas .....	32
Topilmas .....	34

Odamzod.....	35
Foniy dunyoga inonmang .....	36
Qur'onga quloq solib, farmonga nazar ayla .....	37
Asling nedir, etgil nazar .....	39
Ko'ngul .....	40
Yuzim yuvsam yoshlar bilan .....	41
Qanotim yo'q, ucha bilmam, naylayin.....	42
Turdi shoir, sendan so'rab ko'rayin .....	44
Oshiqlar haq ishqinda.....	45
Mashg'ul bo'ling toat bilan.....	47
O'qidim Qur'on ichinda.....	48
Bir Allohga aytay hamd-u sanolar.....	49
Bizdan salom bo'lsin Turdi shoirga.....	51
Chilimkash.....	53
Noskash .....	54
G'iybatchi .....	56
Ko'z yoshin to'kmagan erdan... ..	57
Ummat yaxshidir .....	59
Ketib boradir.....	60
Alloh sen.....	62
Sochdi Muhammad .....	63
Uylar ko'rarsan.....	65
Xarob aylar .....	66
Yo Rasul!.....	69
Tursa kerakdir .....	70
Vafot bor .....	78
Alidur .....	80
Omon, hey!.....	81
Andadur .....	83

Bir bayon kelar .....	85
O'zi bihishtning .....	87
Qilg'il namozni .....	90
Bir Allohdir .....	91
Bitmoq kerak .....	93
Yoylari bordir .....	94
Amri xon kelar .....	96
Oldingda .....	97
Mor chiqar .....	98
Ko'rgach, Rasul .....	100
Bag'ishla bizni .....	102
Oxirzamon kelar .....	104
Yig'lashmoq bordir .....	105
Robbiyal-a'lo .....	107
O'z ovinda bilinar .....	108
Bo'lar yer andadir .....	109
Oxirzamon bo'lar .....	112
Beshak yondirar .....	113
Yorlaqagil gunohimni .....	114
Kelsa kerakdir .....	116
Oshiq bo'lmisham .....	117
Bo'ldim giriyona .....	119
Yor kerakdir .....	121
Yoqqancha bo'lmas .....	122



*Adabiy-badiiy nashr*

# MAXTUMQULI

**Muharrir:** Abdulla SHAROPOV

**Badiiy muharrir:** Bahriiddin BOZOROV

**Texnik muharrir:** Dilshod NAZAROV

**Sahifalovchi:** Rustam ISOQULOV

**Musahhah:** Shahzoda HAKIMOVA

10.200 e.

Nashriyot litsenziyasi: AI №134, 27.04.2009

Terishga berildi: 02.12.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 02.03.2020-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108 <sup>1/4</sup>

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t.: 4,5. Shartli b.t.: 5,2.

Adadi: 4000 nusxa.

Buyurtma № 57

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi.

100156, Toshkent shahri Chilonzor tumani 20<sup>A</sup>-mavze 42-uy.

Tel.: (+99871) 217-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

«Javoxir nashr» MChJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi 6-uy.



ISBN 978-9943-6-159-4



9 789943 635944